Efir moyi flarentinaning yuqorigi qismiga to'planib davriy ravshda undan ajratiladi, oz miqdorda efir moyi eritmasini saqlovchidistillyat kogobatsiya nomli qayta haydashga yuboriladi. Distillyatdan efir moyini ajratib olish uchun yana uchuvchan erituvchili desorbsiyali yoki o'tkir bug' bilan haydaladigan adsorbsiya usuli ham qo'llanilishi mumkin.

Bug' bilan haydashning yana bir usullaridan biri bu gidrodistillyatsiya usulidir. Bu usulda haydalgandaxomashyo suv bilan to'ldiriladi. Haydash uchun bug'rubashkalari yoki bug' zmeeviklariga qizdiruvchibug'yuborilib qizdirilgan kolba suv solib hosil qilingan bug' qo'llaniladi.

Oldin to'ldirilgan kub mo'tadil bug' bilan qaynash darajasiga keltiriladi, keyin unga o'tkir bug' qo'shiladi.

O'simiklardan efir moylarini olishning bir necha usullari bor. Bularga distilyatsiya, siqish va erituvchilar orqali ekstraksiya qilish. Har bir metodning o'ziga hos tamonlari va kamchiliklari bor. Turli xil usullarda olingan efir moylari turli xil xossalarni namoyon qiladi. Efir moylarni olishda distilyatsiya, siqish va anfleraja usullari qo'llaniladi.

1-usul Distilyatsiya(bug' yordamida haydash) ayrim paytlarda razmarin, shalfey va boshqa efir moylarga boy bo'lgan o'simliklar savdo qilish rastalarida arzon bo'lgan paytlarda, Baldinda alximik ilhomlari uyg'onar edi, u o'zining katta misli haydash uchun mo'ljallangan kubsimon ustiga kondensator o'rnatilgan qurilma chiqarar edi. U buni „ mavr kallasi” deb nomlaydi va u 40-yil oldin o'zining qurilmasi orqali efir moyli o'simliklarni distillagan. Grenuy haydash uchun mo'ljallangan mahsulotni maydalayotgan paytda , Baldin toshsimon isitgichni olov oldirar va unga suvga to'la misli idishni o'rnatadi. U unga maydalangan o'simliklarni tashlab, trubkaning ustiga ikki qatlamli qapqoq - „ mavr kallasi”ni o'rnatib suvni kirishi va chiqishi uchun ikkita katta bo'lmagan uzatgichni biriktirib qo'ygan. Keyin u olovni kuchli qilib. Kub tarkibidagi moddalar asta sekin qaynay boshlaydi. Ma'lum vaqtdan so'ng distilyant „mavr kallasi”dagi uchinchi trubka orqali florentiyskiy suvdonga kelib tushadi.Dastlab suyuqlik tiniqmas, loyli quyqaga o'hshab ketgan. Lekin ma'lum vaqtdan so'ng, ayniqsa yangi suvdonga bo'shatilgandan so'ng va biron bir tinch joyga qo'yilgandan so'ng, bu aralashma asta sekin ikki qavatga ajray boshlaydi: pastki qismida gulli yoki o'simlikli suv, ustki qismida esa moyning qalin qatlamli qismi suzib yuradi.Endi ehteyotkorlik bilan florentiyskiy suvdonning bo'yin qismidan gulli suvni ajratib olinadi va cho'kmada toza moyli qatlamni, assensiyani qoladi. Grenuy bu jarayondan hayratlanadi bu usul efir moylarni ajratib olishning eng oddiy usuli hisoblanadi.

Aromatik tarkbiy qismlar o'simlik xomashyosidan ajratib olinnadi, bug'ning xossasi va yuqori bosim ta'siri orqali. O'simlik xom-ashyoni setkaga joylashtirib qaynab turgan suvga botiriladi. Yoki undan qizib turgan bug' o'tiriladi, boshqa bir qurilmadan. Xom-ashyodan o'tayotgan bug' o'zi bilan uchuvchan komponentlarni olib ketadi. Keyin u ilonizida sovitiganda u distillangan suv bilan moyga kondensatsiya qiladi. Bu aralashma chaga saotiga o'xshovchi mahsus yig'gichda yig'iladi. Ko'pgina hollarda distillangan suv moyga nisbatan og'ir bo'lgani uchun tiygi qismga cho'kadi, efir moylari esa yig'gichning ustki qismida yig'iladi.Keyin jo'mrakni ochib moyni quyish mumkin. Moyni to'g'ri distillash

360 gradusda 8 saot davomida 2 atmosfera bosimda amalga oshiriladi. Bu texnologiyani TSA Iris uchun efir moylarini ajratib olishda qo'llaniladi. Bunday sekin haydashning asosiy mohiyati shundaki, bu usul moydan ancha yirik molekulalarni ajratishga yordam beradi qolaversa mahsulotning gamma hidini boyitadi, shifobaxsh politerpen fraksiyasini saqlab qoladi. Haydashning zamonaviy usullarida ancha yuqori temperatura qo'llaniladi, buning natijasida efir moylari tez va oson ajratib olinadi. Bu usul tez, arzon va samarador hisoblanadi biroq olingan efir moyning hidi turli tuman bo'lmaydi ya'na ularning shifobahsh xususiyatlari yo'qatiladi.

2-usul siquv. Siquv – bu usul efir moylarni sitrus mevalarning postloqidan olishga asoslangan. Moylarlar yuqori bosim ostida siqilganda chiqadi. Sitrus o'simliklarning efir bezlarini hatto qurollanmagan ko'z bilan ko'rish mumkin-bular yumoloq mayda teshikchalardir. Po'stloq siqilganda moylar qiyinchiliksiz ajralib chiqadi. Qadimda tsitruslarning efir moylarini qo'lda siqishgan, hozirgi paytga kelib moyni press ta'sirida ajratib olinadi. Presslangandan so'ng olingan efir moylar tarkibida kunjara va shiliq bo'ladi. Ularni cho'ktirish yoki tsentrafuga usulida yo'qotiladi. Kunjara o'zi tarkibida efir moylarini saqlovchi massadir(30% gacha moy saqlashi mumkin). Odatda kunjara ikkinchi marta qayta ishlanadi-distillanadi, ortiq qolgan moyni ajratib olish uchun. Bunda olingan moy pressdan olingan moydan sifati jihatidan yamon lekin unga nisbatan fototoksik emas. U oziq mahsulotlarida aromitizator sifatida ishlatiladi. Presslanganda ajratib olingan moy o'zining tarkibida fototoksik bo'lgan modda- forokumarin tutadi. Bunday modda teriga tushgan paytda terini quyosh nuriga chidamliligini susaytiradi giperpigmentatsiya bilan qizarishlarni keltirib chiqaradi. Buni oqibatlarini oldini olish uchun fototoksinni kimyoviy yo'llar bilan yo'qatiladi. Fotokumarin saqlovchi moylarga ko'rsatma beriladi, e'stemol paytida quyosh nuriga chiqmang.

3-usul- Anfleraj qlingan plastinkalarda mayin hidli jasminning aromatlari aniqlangan edi. Ibo nyux Grenuya shurnasizki hali ham gullarning hidlari farqlarini va ularning konservirlangan aromatlari farqlarini o'rganiyotgan edi...

Shurnasizki sovuq anfleraj mayin hidlarni aniqlashda eng zo'r usullardan hisoblanardi. Bu usuldan yahshi usul bo'lmagan. Patrik Zyuskind .parfyumer. Anfleraj – bu efir moylari kam bo'lgan o'simliklar tarkibidan aromatik moddalarni ajratib olish metodi hisoblanadi. Bu usul Fransiyada 19-asrda qo'llanilgan, hozir esa qo'llanilmaydi chunki mehnat kuchni ko'p talab qiladi. Anflerajning ikki turga bo'ladilar : sovuq va issiq. Birinchisi ko'p tarqaldi. Sovuq anfleraj quyidagicha borgan daraxtdan bo'lgan ramaning ichida joylashgan shishaga hayvon yog'i surtilgan ustiga tirik gullar yoki yaproqlar joylashtirilgan . Yog' o'ziga 1-3 kun mobaynida aromatik moddalarni yutganidan so'ng, gullar olinib yangisiga almashtirilgan . Bu jarayon yog'ning oziga uchuvchan moddalarni yuta olish qobiliyati tugaguncha (1kg yog' o'ziga 3 kg guldand hosil bo'lgan aromatik moddani yuta oladi) olib borilgan. Bu jarayonda hosil bo'lgan yog' „ gulsimon aralashma” degan nomni oladi va shishadan qrib olinadi. Aralashmaga nomni homashyo necha marta o'zgartirilishiga qarab qo'yilgan. Masalan xom-ashyo 27 marotaba o'zgartirilgan bunda aralashma nomi „aralashma27” deb qo'yilgan. Keyin aralashmaga etil spirti qo'shilgan ,aromatik moddalar spirtida erib ketishi uchun. Aralashmaning apirtida yahshi erishi uchun bu aralashmani „g'alla yanchadigan mashina” ga kiritilgan , bunda spirt bilan aralashma aralashtirib turilgan. Keyin aralashmani spirtidan filtrat yordamida ajratib olingan. Anflerajning oxirgi bosqichi – vakuum distilyatsiya spirtni ajratib olish uchun. Chiqishda aromatik absolyut moylarni olishgan, parfyumeriya uchun qimmatli mahsulot. Keyingi qolgan aralashma tarkibida qolgan aromatik komponentlar sovunlar olishda ishlatilgan.issiq anfleraj qaddimgi misrliklarga ham ma'lum bo'lgan. Lekin o'zining qo'llanilishini Fransiyada topdi. Yog'larni isitgichga gullar bilan joylashtirilgan , doimiy haroratda(tahminan 60 gradusda) 2 saot davomida. Keyingi kunda gullar sita yordamida alingan va ular yangisiga almashtirilgan. Jarayonni 8-10 marotaba bajarishgan. Yog' modda oziga ortiq aromatlarni yuta olmagan paytda gullardan filtrlangan . keyinchalik aromatik moylar ham shu usulda olingan, sovuq anfleraj kabi. Anfleraj usuli juda katta qo'l kuchini talab

etadi. Absolyuning tan narxini ashirib yuboradi. Absolyu TSA IRIS olish uchun sovuq anfleraj ishlatiladi. 1930 –yilgacha parfyumerlar bu usulni tashlashgan qimmatbaholi uchun. Quyidagi aytilmoqchi bo'layotgan texnologiya eski usullardan uncha farq qilmaydi.

4 – usul erituvchilar ishtirokida ekstraksiya. erituvchilar ishtirokida ekstraksiya usuli faqat distlyatsiya metodi juda kam foyada bergan paytlarda qo'llaniladi. Bu metod anfleraj va distilyatsiyaning alternativ metodi hisoblanadi, bunda temperatura rejasini va vaqtni tutib turish kerak.buni bir so'z bilan aytganda efir moylarini olishda ko'p energiya talb etadigan usul hisoblanadi. Chunki u qizdirishni ham, ortiqcha bosimni ham , mexanik siqimni ham talab qilmaydi. Bu metod uchun yuqori tozalikka ega bo'lgan organik erituvchilar ishlatiladi: petroley efir , geksan, pentan,dietilefir. Erituvchilarga ma'lum talablar qo'yiladi. Erituvchi hidga ega bo'lmasligi, toksik moddalar hosil qilmasligi, yoki mahsulot hidini o'zgartiruvchi moddalarga ega bo'lmasligi talab qilinadi. Erituvcha qancha past temperaturada qaynasa shuncha yahshi – bu quyidagicha tushintiriladi ekstraksiya paytida temperatura oshirilganda moddalar parchalanib qoshimcha qoldiqlar hosil qilmasligi bilan. Bunday talablarga petroley efiri bilan dietil efir talab beradi. Gullarni erituvchi bilan aralashtiriladi va erituvchini vaakumquritgich bilan yo'qatiladi. Yopishqoq juda quyi spirtida eruvchi qoldiq qoladi.keyin spirtnio haydab akstrak olinadi. Bu metodga parfyumerlar tan berishadi. Bunda olingan aromatik moddalar o'simlikdagi aromatlarga hidi bo'yicha ancha yaqin bo'ladi.biroq aromaterapevtlar billadiki bunday moylarda ma'lum miqdorda petroley erituvchisi qoladi. Bu modda organizmning immun sistemasi uchun xavfli hisoblanadi va allergik kasalliklarni keltirib chiqaradi. Bunday usulda olingan moylarni ichga qabul qilib bo'lmaydi.

"Uchuvchan yoki efir moyi" atamasi sintetik organik kimyo paydo bo'lmasidan oldin kiritilgan. Ushbu atama o'simliklardan olinadigan hamma uchuvchan moddalarni ko'rsatishda qo'llaniladi.

Efir moyi deb o'simliklardan suv bug'i yordamida haydab olinadigan, o'ziga xos

hid va mazaga ega bo'lgan uchuvchan organik aralashmasiga aytiladi.

Hushbo'y hidli o'simliklar va ulardan olinadigan bazi mahsulotlar qadimdan ma'lum. Odamlar bu mahsulotlardan turli kasalliklarni davolashda, ovqat tayyorlashda keng foydalanib kelganlar. O'simliklar dunyosida efir moylari keng tarqalgan. To'plangan malumotlarga ko'ra yer shari fiorasidagi o'simliklardan taxminan 2500dan ortiq turi tarkibida efir moyi bor. Shundan 77 oilaga kiradigan 1050dan ortiq o'simlik turi sobiq Ittifoq hududida o'sadi.

Tarkibida efir moyi bo'lgan o'simliklar asosan Ukraina, Moldova, Gruzziya, Tojikiston, Qirg'iziston respublikalarida, SHimoliy Kavkaz, Qirm, Voronej viloyatlarida ko'plab o'stiriladi.

Efir moyining miqdori o'simliklarda 0.001-20% gacha bo'lishi mumkin. Bu moyning miqdori va tarkibiy qismi o'simliklarnig o'sish joyiga, rivojlanish davriga, yoshiga va naviga qarab o'zgarib turadi. Turli o'simliklarda efir moyining miqdorda to'planishi turli vaqtlarga to'g'ri keladi. Odamda o'simliklar gullash, ba'zilari g'unchalash davrida yoki bundan ham ertaroq moylarini maksimal miqdorda to'playdi. Efir moyining o'simlik tarkibida ko'p yoki kam miqdorda to'planishi havo haroratiga va namligiga, tuproq namligiga hamda yerdagi mineral moddalarning ko'p yoki ozligiga bog'liq.

Odatda havo harorati ko'tarila boshlagan sari o'simlik tarkibida efir moylari ko'proq sintezlanadi va aksincha, havo namligi ko'payishi bilan bu birikmalar miqdori kamayib boradi.

Tuproqdagi namlikning o'rta darajadan ko'p yoki kam bo'lishi o'simlik tarkibida efir moylarining kamayishiga olib keladi. Shuningdek qurg'oqchilik bazi o'simliklarda efir moylarining ko'p to'planishiga sabab bo'ladi. Mineral moddalardan kaliy kationi va fosfat anioni rozmarin tarkibidagi efir moyining ko'p to'planishiga yaxshi tasir ko'rsatadi.

Efir moylarining o'simliklar hayotida tutgan o'rni yani ahamiyati shuvaqtgacha to'la aniqlanmagan. Ba'zi olimlar efir moylari va smolalar o'simliklarni turli kasalliklardan, zararkunandalardan, chirishdan hamda zaharlanishdan saqlash

vazifasini o'taydi, degan fikrni bildiradi. Ba'zi nazariyalarda esa efir moylari hasharotlarni jalb etadi va o'simlik gullarining changlanishiga yordam beradi deyiladi. Bundan tashqari efir moylari o'simlik chiqindisi yoki zahira ovqat moddasi bo'lib xizmat qiladi, degan fikrlar ham bor.

Tandal efir moylari o'simliklarni kunduzi qattiq qizib ketishdan, kechasi esa qattiq sovuqdan saqlaydi hamda to'qimalardan suv bug'lanishini tartibga solib turadi. O'simlik tarkibidagi efir moylarining miqdori va tarkibi uning o'sish davriga bog'liq holda doimo o'zgarib turadi. O'simlikda avval oddiy birikmalar sintez bo'lgan bo'lsa, keyinchalik yuz beradigan o'zgarishlar (unish, g'uncha hosil qilish, gullash, meva tugish va boshqalar) ga qarab efir moyining tarkibi o'zgaradiva vegetatsiya davrining oxirida yanada murakkablashgan birikmalar hosil bo'ladi. Ko'pincha o'simlikning qarishi davrida moy tarkibidaoqsillangan tarkibiy qismlar yig'iladi. Yuqorida keltirilgan dalillar o'simliklardagi efir moylarining fiziologik ahamiyatini aniqlashda katta o'rin tutadi.

Efir moylari ajratib chiqaruvchi va to'plovchi endogen organlarga moy to'planadigan joylar, kanalchalar, moy yo'llari hamma ildiz va ildizpoyaning epidermis yoki probka to'qimalari ostida bir-ikki qator bo'lib joylashgan hujayralar kiradi. bunday hujayralar efir moyi ishlab chiqaradi va uni saqlaydi.

Efir moyi to'planadigan joylar shar yoki cho'ziq shakilda bo'lib, o'simliklar bargida va gulkosacha bargida, po'stlog'ida, yog'och qismida hamda meva po'stida uchraydi. Efir moyi to'planadigan joylar o'simlik organlarida turli usullar bilan hosil bo'ladi. O'simlik to'qimalari hujayralarining siqilishi natijasida bo'shliq vujudga kelib, so'ngra uning chetlarida efir moyi ishlab chiqaradigan hujayralar paydo bo'ladi va ular moy yig'iladigan joyni hosil qiladi. Bu usul sxizolizogen tip deb ataladi. Ba'zan to'qimalarda oldin ishlab chiqarilgan bir tomchi efir moyi o'z atrofidagi hujayralarni eritib bo'shliq hosil qiladi. Natijada bu bo'shliq tevaragida efir moyi ajratuvchi hujayra paydo bo'lib, ular moy yig'iladigan joyni vujudga keltiradi. Bu usul lizogen tipi deb ataladi. Odatda o'simliklarda bu ikki usulning to'qimalarda umumlashishidan sxizolizogen tipida hosil bo'lgan efir moyi

to'planadigan joylarni hosil qilgan ko'proq uchrashi mumkin. Bu holda hujayralarning siqilib hosil qilgan bo'shlig'ida paydo bo'lgan efir moyi atrofidagi qolgan hujayralarni ham eritib, moy yig'iladigan joyni vujudga keltiradi.

Efir moyi saqlovchi dorivor o'simliklar va mahsulotlar tarkibidagi moyni asosiy qismining kimyoviy tuzilishiga qarab olti guruhga bo'linadi.

1.Tarkibida atsiklik (ochiq zanjirli) monoterpenlar bo'lgan efir moylari va o'simliklar.

2.Tarkibida monotsiklik monoterpenlar bo'lgan efir moylari va o'simlik.

3.Tarkibida bitsiklik monoterpenlar bo'lgan efir moylari va o'simliklar.

4.Tarkibida aromatik monoterpenlar bo'lgan efir moylari va o'simlik.

5.Tarkibida atsiklik (ochiq zanjirli) seskviterenlar bo'lgan efir moylari va o'simliklar.

6.Tarkibida tsiklik seskviterpenlar bo'lgan efir moylari va o'simliklar.

1.Tarkibida atsiklik (ochiq zanjirli) monoterpenlar bo'lgan efir moylari va o'simliklar guruhiga kiradigan mahsulotlar (atirgulsimon moylari hamda kashnichning efir moyi va mevasi) tibbiyotda uncha ahamiyatga ega emas. Lekin hushbo'y bo'lganidan parfyumeriyada ko'p ishlatiladi.

2.Tarkibida monotsiklik monoterpenlar bo'lgan efir moylari va o'simliklar guruhiga kiradigan dorivor o'simliklar efir moylarining asosiy ta'sir qismlari mental, tsinoel, limonen, pulegon, menton, karvon va boshqa birikmalar hisoblanadi.

Ushbu guruhga qalampir, marmarak, yevkalipt, qorazira, piretrum va boshqa o'simliklar kiradi.

3.Tarkibida bitsiklik monoterpenlar bo'lgan efir moylari va o'simliklar guruhiga kiradigan dorivor o'simliklarning efir moylari tarkibida asosan pinen, bornoel, kamfora, tuyol, tuyon va boshqa birikmalar bo'ladi.

Ushbu guruhga archa, valeriana, qarag'ay, kamfora daraxti, kamforali tarkibirayxon, Sibir paxtasi va boshqalar kiradi.

4.Tarkibida aromatik monoterpenlar bo'lgan efir moylari va o'simliklar guruhiga kiradigan mahsulotlarning efir moylari tarkibida(tibbiyotda ahamiyatlisi) timo,

anetol, evgenol va boshqalar bo'ladi. Odatda efir moyi tarkibidagi timol doimo karvakpoya bilan birga uchraydi. Timo'l va karvakpoya fenollarga, qolganlari fenollar unumlariga kiradi.

1. Masteratsiya usuli efir moylarining yog'larda erish xossasiga asoslangan shuning uchun bu usul qizdirilganda tarkibiy qismi o'zgarib ketadigan efir moylari olishda qo'llaniladi. Tarkibida efir moyi bo'lgan gullar mahsus idishiga solinib, ustiga zaytun moyi qo'yiladi va 50 gradusgacha qizdiriladi. Natijada mahsulotdagi efir moyi zaytun moyiga o'tadi. Gullardan tozalangan moy maxsus maqsadlar uchun qo'llaniladi.

2. Anfleraj (yutish) usuli efir moylarining qattiq moylarga yutilishiga asoslangan. Bu usul bilan odatda gullardan yuqori sifatli va qizdirilganda buzilmaydigan efir moylari olinadi. Yutilish jarayoni oddiy haroratda olib boriladi, shuning uchun efir moyi tarkibi buzilmay, sifati saqlanib qoladi. Bir necha kun davom etadigan yutilish jarayonida gullar o'zidan efir moyi ajratib chiqarishni davom ettirishi mumkin.

Bu usul oylar efir moylari olish uchun bo'yi va eni 50x50 sm bo'lgan qalin oyna 5 sm qalinlikdagi maxsus ramkaga o'rnatiladi va ikki tomoniga sifatli yog' aralashmasi (3 qism cho'chqa yog'iva 2 qism mol yog'i) yupqa qilib surtiladi. Yog' ustiga gullar yoki toj barglar qo'yiladi. Keyin ramolar maxsus taxlarga o'rnatiladi, va ustiga gullar har kuni yangilanib turiladi. Gulantatsiyadagi o'simliklarning gullash davri 1-2 haftadan ortiq davom etadigan bo'lsa, oyna ustidagi yog' ham yangilanadi. SHundayqilib, hushbo'y yog' tayyorlanadi. Bu yog'lar esa maxsus maqsadlar uchun ishlatiladi. Efir moylarini faollashtirilgan ko'mirga yutib olish usuli ham ishlab chiqilgan.

3. Presslash usuli bilan tarkibida ko'p miqdorda efir moyi bo'lgan mahsulotlar (limo'n, apelsin, pomoranets, bergamo't va boshqa o'simliklarning mevalari) dan olinadi. Bunday o'simlik mevalarining po'sti qo'l bilan siqilganda ham ma'lum miqdorda efir moyi ajraladi. Agar efir moyiturgan joylarni tishli disk bilan yorib, meva po'sti siqilgudek bo'lsa, ko'proq moy ajraladi. Efir moyi zavodlarda ham shu

usul bilan olinadi.

4. Ekstraksiya usuli efir moylarining ko'pchilik organik erituvchilarda yaxshi Efir moyi o'simlik organlaridan past haroratda yengil uchuvchan organik erituvchi yordamida ajratib olinadi. So'ngra organik erituvchi haydalib, efir moyi ajratib olinaadi.

3.3. Texnologik xisoblashlar. Jarayonning material balansi

Dastlabki ma'lumotlar:

Tayyor ekstrakt bo'yicha ish unumdorligi -500 kg/sutka yiliga 175 t.

Xom ashyoning namligi -	28-30 %
Saralashdagi yo'qotilishlar-	1,0%
YUVushdagi massa yo'qotilishi-	2,0 %
Perkolyasiya jarayonidagi texnologik yo'qotilishlar-	2,0 %
Ekstraksiya jarayonidagi texnologik yo'qotilishlar-	2,0 %
Qadoqlash jarayonidagi texnologik yo'qotilishlar-	1,0 %


Material balans.

Loyihalash uchun biz qabul qilgan unumdorlik yiliga 175 tonna ekstrakt ishlab chiqarish. Yillik ish kuni $T = K - P = 365 - 12 = 353$ kun

bu erda K – kalendar yil kunlari, P – profilaktik remont uchun ajratilgan ish kunlari - 12 ga teng.

Har bir ishlab chiqarish jarayonidagi texnologik yo'qotishlar, kuydirilganda kamayadigan miqdor (K.K.M.), namlikni hisobga olgandagi kesak ohak ishlab chiqarish uchun talab qilinadigan xom-ashyo miqdori hisobi:

Quyidagi blok sxema tuzilishida material balans hisoblaymiz:



Material balansni hisoblashda oxirga bajarilayotgan texnologik operatsiyadan boshlab hisob-kitob ishlari amalga oshiriladi.

Qadoqlash uchun idishlar hisobi.

Ekstraktning zichligi 1.8 g/sm^3 deb qabul qilamiz. 1 dona idishning (xajmi 5,0 litr) sig'imi $m_{\text{idish}}=9,0 \text{ kg}$. 500 kg ekstraktni idishga joylash uchun idishlar sonini topamiz.

$$N = G/n = 500/9 = 56 \text{ dona}$$

Idishlarga joylashda texnologik yo'qotilish 1% deb olamiz.

Idishning yo'qotilishining topamiz;

$$N_1 = (N_{\text{idish}} \cdot \eta) = (56 \cdot 0,01) = 1 \text{ dona}$$

Maxsulot bo'yicha sutkalik talab 500 kg qadoqlashdagi texnologik yo'qotishlar 0.5% ni tashkil qiladi deb olamiz. U holda ;

$$G^1_{\text{max}} = G^1_{\text{max}} + (G_{\text{max}} \cdot \eta) = 500 + (500 \cdot 0,005) = 502,5 \text{ kg}$$

Qadoqlashdagi texnologik yo'qotishlar 1,0% ni tashkil qiladi deb olib sovutish bo'limiga kelishi zarur bo'lgan material miqdorini topamiz;

$$G^c = G^q + (G_k \cdot \eta) = 502,5 + (502,5 \cdot 0,01) = 508,0 \text{ kg}$$

Massani ajratish va siqish xamda tozalash jarayonlarida umumiy xolda 5 % miqdorida yo‘qotilish bo‘ladi, u xolda

$$G^c = G^q + (G_k \cdot) = 508 + (508 \cdot 0,05) = 533,0 \text{ kg}$$

Massani perkolyasiya qilish jarayonida umumiy xolda 2 % miqdorida texnologik yo‘qotilish bo‘ladi, u xolda

$$G^c = G^q + (G_k \cdot) = 533 + (533 \cdot 0,02) = 544 \text{ kg}$$

Perkolyasiya jarayoniga sarflanadigan spirt va suv sarfini topamiz:

Spirt sarfi umumiy massaga nisbatan 23 % ni tashkil qiladi u xolda sutkalik spirt sarfi

$$G^{c\text{spirt}} = (G^{\text{massa}} \cdot) = (544 \cdot 0,23) = 125 \text{ l}$$

Suv sarfi umumiy massaga nisbatan 100% u xolda

$$G^{\text{cuv}} = 544 \text{ litr}$$

YAlpizni qirqish jarayonida texnologik yo‘qotilish 2 % ni tashkil qiladi deb olamiz, u xolda

$$G^{\text{yalpiz}} = G^{\text{massa}} + (G^{\text{massa}} \cdot) = 544 + (544 \cdot 0,02) = 555 \text{ kg}$$

YAlpizni yuklash va saqlashdagi yo‘qotilishlar 2 % ni tashkil qiladi deb olamiz, u xolda

$$G^{\text{yalpiz}} = G^{\text{massa}} + (G^{\text{massa}} \cdot) = 555 + (555 \cdot 0,02) = 556 \text{ kg}$$

Ishlab chiqarishni material balansini tubandagi jadvalga tushamiz.

Jadval

YAlpiz o‘simligidan ekstrakt olish jarayonini yillik material balansi.

	Bosqichlar	Sutkalik		Yillik	
		Kirim, kg	Chiqim,kg	Kirim,kg	Chiqim,kg
1	YAlpiz	566	-	1 992 320	-
2	Tehnologik yo‘qotilish		66		232320
	Tayyor mahsulot		500		1 760 000

Yalpizdan ekstrakt olish sexiga asosiy uskunalar tanlash va asoslash

Asosiy uskuna bu perkolyator bo'lib uning ishchi xajmi unga yuklanadigan massa xajmiga mos bo'lishi va zaxira qiymati bilan olinishi kerak.

Bir kunlik sarf 566 kg ni tashkil qiladi

Quyidagi jadvalda perkolyatorlarning texnik xarakteristikalarini keltirilgan (internet ma'lumotlari)

Jadval

Perkolyatorlarning texnik xarakteristikalarini

Model	Yuklanadigan partiya xajmi (kg)	Ishlov berish vaqti (soat)	Ekstraksiyalash temperaturasi(°C)	Idishdagi bosim(mPa)	Qurilma qobig'idagi bosim (mPa)
SLG-500	75 - 300	3 - 8	Uy xaroratidan 100 °C gacha	<0.2	0.6
SLG-1000	150 - 400	4 - 10	Uy xaroratidan 100 °C gacha	<0.2	0.6
SLG-2000	300 - 700	4 - 12	Uy xaroratidan 100 °C gacha	<0.2	0.6
SLG-3000	400 - 1000	5 - 16	Uy xaroratidan 100 °C gacha	<0.2	0.6
SLG-4000	600 - 1400	5 - 16	Uy xaroratidan 100 °C gacha	<0.2	0.6
SLG-5000	700 - 1700	6 - 18	Uy xaroratidan 100 °C gacha	<0.2	0.6
SLG-6000	800 - 2000	6 - 18	Uy xaroratidan 100 °C gacha	<0.2	0.6

Ushbu jadvaldan foydalanib SLG-500 iarkali 2 ta qurilma tanlaymiz
Omborxonadan yalpizni kesish mashinasiga yuklab berish uchun Lentali konveyer orqali uzatamiz.

Lentali konveyerning tehnik harakteristikasi:

-Lentaning eni,B,mm-	400
-Lenta uzunligi,L,mm-	20000
-Lentaning qiyalik burchagi- ⁰ -	15
-Lenta tezligi,mm\sek-	200
-Elektrodrigatel quvvati,kvt-	7.0
-Lenta qalinligi,mm-	9.8
-Lenta og'irligi,kg\m ² -10.8	
-Lenta mustahkamligi,H\mm-	400
-Qatlamlar soni-	2

3.4. YAlpizdan ekstrakt olishning analitik nazorati

3.4.1. Efir moylarini analiz qilish usullari

3.4.1. O'simliklar tarkibidagi efir moyi miqdorini aniqlash

O'simliklar tarkibidagi efir moyi miqdorini aniqlash uchun 1000 ml hajmdagi tagi dumaloq kolbaga 10-20 g maydalangan o'simlik organidan solib, ustiga 300 ml suv quyiladi va kolba ustiga sharikli sovitgich tik holda o'rnatiladi. Sovitgichning pastgi uchiga Ginzberg asbobchasini osib qo'yib, kolba qizdiriladi. Ginzberg asbobchasi U shaklidagi shisha naycha bo'lib, bir uchi ingichka va qisqaroq, ikkinchi uchi esa uzunroq, keng va millimetrlarga bo'lingan. Ko'lbadagi suyuqlik qaynagandan so'ng, suv bug'lari efir moyi bug'lari bilan sovutgichga aylanib, Ginzberk asbobchasiga tomchilab qaytib tushadi. Efir moyi suvdan yengil bo'lgani uchun suyuqlikning tepasiga yig'iladi va suv asbobchanning qisqa uchidan kolbaga oqib tushadi. Agar asbobcha uchidagi fir moyi miqdori 10-20 minut ichida

o'zgarmasa (ko'paymasa), kolbani qizdirish to'xtatiladi. Kolba sovigandan so'ng asbobchani olib, efir moyi necha ml ekanligi aniqlanadi va % miqdori quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$X = \frac{V \cdot 100 \cdot 100}{m \cdot (100 - a)};$$

bunda X-o'simlikdagi efir moyining hajm og'irlikdagi % miqdori.

V-Ginzberg asbobchasidagi efir moyining ml hajmi.

M-analiz uchun olingan o'simlik organining miqdori.

a-mahsulotning namligi.

Agar aniqlanayotgan efir moyining zichligi 1 dan yuqori bo'lsa, Ginzberg asbobchasi ham shunga qarab moslashtiriladi.

3.4.2. Efir moylari tarkibidagi aralashmalarni aniqlash

Efir moylari tarkibida ba'zan turli aralashmalar (spirt, yog'lar, mineral moylar, suv va boshqalar) uchraydi. Bunga efir moylarini olish vaqtida suvdan yaxshi tozalanmaganligi va qisman falsifikatsiya qilish maqsadida ularga ba'zi moddalar qo'shib yuborish sabab bo'ladi. SHuning uchun efir moyining sifatini aniqlashda tarkibida bo'lgan spirt, mineral moylar va suvga reaksiyalar qilish kerak.

Efir moylaridagi spirt aralashmasini aniqlash . Soat oynasiga qo'yilgan suv ustiga bir necha tomchi efir moyi tomizib, qora buyum ustida ko'rilganda moy tomchilari atrofida loyqalanish bo'lmasligi kerak. Efir moyi loyqalansa, unda spirt aralashmasi borligi ma'lum bo'ladi.

Quruq probirkaga 1ml efir moyi quyiladi, so'ngra paxta tampon bilan probirka yopiladi. So'ngra paxta ustiga fuksinning kichik bo'lakchasi-kristali solinadi va probirkadagi efir moyini qaynaguncha qizdiriladi. Agar moyda spirt aralashmasi bo'lsa, uning bug'i probirkadagi paxtadan o'ta turib, fuksinni eritadi, natijada paxta qizil rangga bo'yaladi. Efir moylari tarkibidagi yog' va mineral

moylarni aniqlash. 1ml efir moyini probirkaga quyib, 10ml spirt bilan chayqatiladi. Efir moyi tarkibida yog' va mineral moylar (vazelin moyi, parafin moyi) bo'lsa, ular spirtida erimaydi va probirkadagi aralashma loyqalanadi. Yog'lar aralashmasini yana akralein reaksiyasi yordamida aniqlash mumkin.

Efir moylaridagi suv aralashmasini aniqlash. 1ml efir moyini quruq probirkaga solinadi va unga suv bilan to'yintirilgan benzoldan 3ml qo'shib chayqatiladi. Agar efir moyida suv aralashmasi bo'lsa, probirkadagi suyuqlik loyqalanadi.

3.4.3. Efir moylarining fizik xossalarini aniqlash

Efir moylarining fizik konstantalariga zichligi, qutblangan nur tekisligining og'dirish ko'rsatkichi, yorug'likni sindirish koeffitsiyenti, qotish harorati, fraksion haydash, eruvchanlik va boshqa ko'rsatkichlar kiradi. Bu konstantalar identifikatsiya qilish va sifatini belgilashda katta ahamiyatga ega. Masalan, efir moylarining zichligiga qarab, tarkibida qaysi guruhga kiradigan birikmalar borligini aniqlash mumkin. Agar zichlik 0.9dan past bo'lsa, efir moyi tarkibida asosan ochiq halqali yoki siklik terpenlar bo'lishi, zichlik birdan yuqori bo'lganida esa kislorod, azot va oltingugurt saqlovchi aromatik uglevodorodlarga boyligi ma'lum bo'ladi.

Yorug'likni sindirish koeffitsiyenti va qutblangan nur tekisligining og'ish burchagi ham efir moylarining analizida katta ahamiyatga ega. Ular efir moylarini saqlash davrida shu moylar tarkibiy qismining buzilishiga qarab o'zgarishi ham mumkin. Efir moylarining zichligi piknometr, yorug'likni sindirish ko'rsatkichi refraktometr hamda qutblangan nur tekisligini og'diruvchi ko'rsatkich - polyorimetr yordamida aniqlanadi.

Efir moylari barcha organik erituvchilarda yaxshi eriydi. turli konsentratsiyadagi spirtlarda (70-80-90 %) har xil erishiga qarab, qaysi efir moyi ekanligini aniqlash mumkin. Bundan tashqari, spirt konsentratsiyasi pasaygani sari, efir moylari tarkibidagi ba'zi aralashmalar (yog'lar, parafin, vazelin moyi va boshqalar) cho'kib ajraladi. SHuning uchun efir moylarining tozaligi va sifatini aniqlashda ularning eruvchanligini bilish katta ahamiyatga ega. Efir moyining spirtlarda eruvchanligini

aniqlash uchun 1 ml moy 10 ml hajmdagi silindrga qo'yiladi va moy to'liq erib ketguncha qadar slindrni chayqatib turib, unga byuretkadan ma'lum konsentratsiyadagi spirt qo'shib turiladi. Efir moyi butunlay erigandan so'ng qancha spirt ketgani hisoblanadi. Efir moylarini fraksion haydash yo'li bilan uning tarkibidagi barcha qismlarning qaynash harorati hamda miqdori aniqlanadi. Ayni vaqtda moy tarkibiga qo'shilgan aralashmalar ham bo'lishi mumkin. Efir moylarining qotish haroratini aniqlash tarkibida stearypteni ko'p bo'lgan moylar uchun ahamiyati katta. Stearyptenlar ko'pincha efir moylarining asosiy qismi hisoblanadi.

3.4.4. Ekstrakt taxlil. Erkin holdagi spirtlar miqdorini aniqlash.

Erkin holdagi spirtlar miqdorini aniqlash uchun ular avval murakkab efirga aylantiriladi, so'ngra yangidan hosil bo'lgan murakkab efirlar gidrolizlanadi. Gidrolizlash jarayonida ajralib chiqqan kislotalarni neytrallashtirish uchun sarf qilingan kaliy ishqori bo'yicha erkin spirtlar miqdori hisoblanadi.

Erkin holdagi spirtlarga sirka kislota angidridini ta'sir ettirib, murakkab efirlarga aylantiriladi. Bu jarayon atsetatlash deyiladi. 1 g atsetatlangan efir moyi tarkibidagi murakkab efirlarni gidrolizlash uchun ketgan kaliy ishqorining milligramm miqdori atsetatlashdan so'nggi efir soni deb ataladi.

Efir moylari tarkibidagi erkin holda uchraydigan spirtlar miqdori atsetatlashdan so'nggi efir soni bilan hisoblanadi.

Aniqlash texnikasi

Atsetatlash uchun ishlatiladigan tuxumsimon maxsus standart kolbaga 10ml efir moyi, 10 ml atsetat angidrid va 2 g suvsiz natriy atsetat solinadi, so'ngra kolbani vertikal shisha naychasi bilan birlashtiriladi hamda qum hammomida 2 soat qizdiriladi. Aralashma sovuganidan so'ng ortiqcha atsetat angidridni kislotaga aylantirish uchun aralashmaga 20 ml suv quyib, kolbani tez - tez chayqatib turiladi va 10 - 15 minut suv hammomida qizdiriladi. SHundan so'ng aralashmani 100 ml hajmdagi bo'luvchi voronkaga quyiladi va efir moyini suv qismidan ajratib olinadi. Ana shu atsetatlangan efir moyini neytral sharoitga kelguniga qadar (metiloranj

indikator bo'yicha) bir necha (4 - 5) marta 50 ml natriy xloridning to'yingan eritmasi bilan yuviladi. Efir moyidagi natriy xlorid qoldig'i 2 marta 20 ml suv bilan yuvib tozalanadi. Efir moyi suvsizlantirilgan natriy sulfat yordamida quritiladi, filtrlanadi. 100 ml hajmdagi konussimon kolbaga analitik tarozida tortiladi 1 - 2 g atsetatlangan efir moyi solinadi va uni 5 ml spirtida eritib, so'ngra kaliy ishqorining 0.5 n eritmasi bilan neytrallanadi. Kolbadagi aralashmaga kaliy ishqorining 0.5 n lispirtidagi eritmasidan 25 ml qo'shiladi va kolbani vertikal shisha naychasi bilan birlashtiriladi hamda suv hammomida qizdirib, moyning efir soni aniqlanadi. Bu usul ikki marta qaytariladi va o'rtacha natijada efir soni hisoblab chiqiladi.

EKOLOGIK MASALALAR YECHIMI. TOZALASH USKUNALARI TO'G'RISIDA MA'LUMOTLAR.

YAngiarik tumanida yalpiz poyasidan ajratma biosintez qilishning texnologik sxemasidan kelib chiqib men o'z loyihalash ishimda tizimda mavjud bo'lgan ekologik xavf chiqishi mumkin bo'lgan manbalarni aniqladim. Bu to'g'risidagi ma'lumotlar quyidagi jadvalda keltirilgan.

Jadval

YAlpiz poyasidan ajratma biosintez qilishda mavjud bo'lishi kutilayotgan ekologik xavf manbalari

№	Texnologik jarayon bosqichlari	Ekologik xavf manbasi	Izoh
1	YAlpizni yuklash	YAlpizni tushurishda va lentali transporterga yuklashda chang xosil bo'ladi	Mayda dispers chang
2	YAlpizni qirqish	YAlpiz poyasini qirqishda xid va	Mayda dispers chang, xid

		chang xosil bo‘ladi.	
3	Massani perkolyasiya qilish	Perkolyasiya jarayonida oqava suv xosil bo‘ladi va spirt xidi tarqaladi.	oqava suv, etil spirt xidi
4	Massani ajratish va siqish	Massani siqishda oqava suv va biomassa xosil bo‘ladi.	Oqava suv va biomassa
5	Ekstrakti filtrlash va qadoqlash	Maxsulotni filtrlashda cho‘kma xosil bo‘lishi va qadoqlash jarayonida massa to‘kilish va xid taratishi mumkin	Filtr cho‘kmasi va o‘tkir yalpiz xidi.

YUqoridagi jadvaldan kelib chiqib men ekologik tadbirlar rejasini ishlab chiqdim.

Jadval

YAlpiz poyasidan ajratma biosintez qilishda ekologik tadbirlar rejasi

№	Ekologik xavf manbasi	Ekologik tadbirlar
1	YAlpizni tushurishda va lentali transporterga yuklashdagi chang	CHanglarni so‘rish va cho‘ktirish kamerasini o‘rnatish
2	YAlpiz poyasini qirqishda xid va chang	CHanlarni so‘rish va ventilyasiya tizimini joriy qilish
3	Perkolyasiya jarayonida oqava suv va spirt xidi	Oqava suvlarni yig‘ish va tozalash tizimini joriy qilish
4	Massani siqishda oqava suv va	Oqava suvlarni yig‘ish va tozalash tizimini

	biomassa	joriy qilish, biomassani biogaz olish uchun ishlatishning texnologik echimini ishlab chiqish
5	Maxsulotni filtrlashdagi cho‘kma va qadoqlash jarayonida xid	Filtr cho‘kmasini qayta ishlashning texnologik echimini ishlab chiqish va ventilyasiya tizimini joriy qilish

SHundan kelib chiqib men asosiy e‘tiborni changlarni tozalashga qaratdim. Chang zarrachalarining zichligi 3 xil: haqiqiy, hajmiy va tuyuluvchi bo‘ladi. Hajmiy zichlik (haqiqiy zichlikdan farqli o‘laroq) chang zarrachalari orasidagi havo qatlamini ham hisobga oladi. Kuzatilganda hajmiy zichlik 1,2-1,5 barobar ortadi.

Tuyuluvchi zichlik o‘zida zarrachalar og‘irligini ular egallagan hajmga (oraliqlar, bo‘shliqlar va notyokisliklarni hisobga olgan holda) nisbatini ifodalaydi.

Zarrachalar o‘lchami uning asosiy parametri bo‘lib xizmat qiladi. Chang ushlovchi qurilmani tanlash ushlab qoluvchi changning dispers tarkibiga qarab amalga oshiriladi.

Zarrachalarning eng katta va eng kichik o‘lchamlari ushbu changning dispers diapazonini xarakterlaydi. Changning dispers tarkibi bo‘yicha xarakteristikasini tuzish uchun to‘liq chang zarrachalarini ma‘lum bir o‘lchamlar bo‘yicha chegaralab, ularni og‘irlik bo‘yicha qanday ulush tashkil etishini foizlarda ifoda etish kerak bo‘ladi.

Zarrachalarning adgezion xossalari ularning yopishqoqligini ifodalaydi. Zarrachalarni yuqori yopishqoqligi chang ushlovchi qurilmalarni qisman yoki to‘liq tikilib qolishiga olib kelishi mumkin.

Chang zarrachalarining o‘lchami kancha kichik bo‘lsa, ular qurilma yuzasiga oson yopishadi.

Zarrachalar abrazivligi gaz tezliklari va chang konstentrastiyasi bir xil bo'lganda metallning eyilishi intensivligini xarakterlaydi. Bu ko'rsatkich zarrachalarning qattiqligi, formasi, O'lchami va zichligiga bog'liq bo'ladi. Abrazivlik qurilmani hisoblashda (gaz tezligini, qurilma devori va koplash materiallari kalitnligini tanlashda) e'tiborga olinadi.

Zarrachalarni namlanish xossasi xo'l usulda chang ushlovchi qurilmalar samaradorligiga ta'sir ko'rsatadi. Tyokis zarrachalar notyokis yuzali zarrachalarga qaraganda yaxshi namlanadi, chunki notyokis yuzali zarrachalar namlanishni qiyinlantiruvchi, gaz pardasi bilan kO'proq darajada O'ralgan bo'ladi.

Namlanish xarakteri bo'yicha barcha qattiq jismlar uch asosiy guruhga bulinadi:

1. Hidrofill materiallar ---- yaxshi namlanuvchi: kalstiy, kvarst, silikatlar va oksidlangan minerallar;
2. Hidrofob materiallar ---- yomon namlanuvchi: grafit, kumir, oltingugurt;
3. Absolyut gidrofob materiallar: parafin, teflon, bitumlar.

Bu ko'rsatkich chang qatlamini solishtirma elektr karshiligi p_{sl} bilan baxolanadi. Solishtirma elektr karshiligi alohida zarrachalarning xossalariga (yuzasi va ichki elektr O'tkazuvchanligi, zarrachalar formasi va O'lchamlariga), shuningdek qatlam strukturasi va gaz oqimi parametrlariga bog'liq bo'ladi. Ular elektrofilptrlar ishiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Changlar solishtirma elektr karshiligiga qarab uch guruhga bulinadi:

Past Om. li changlar $p_{sl} < 10^4$ Om.sm. Bunday chang zarrachalarini elektrodda chO'ktirishda ular tezda zaryadsizlanadi, bu O'z navbatida ularni kayta olib keltirilishiga (ushlab qolinmasdan) olib keladi.

$p_{sl} > 10^4 - 10^{10}$ Om.sm. bo'lgan changlar. Bu changlar elektrofilptirda yaxshi ushlanadi, chunki zarrachalarning zaryadsizlanishi tez bo'lmaydi, balki qatlam yig'ilishi uchun kerakli bo'lgan vaqt oraligida bo'ladi;

$p_{sl} > 10^{10} - 10^{13}$ Om.sm. bO'lgan changlar. Bu guruhdagi changlarni elektrofiltrlarda ushlab qolish katta qiyinchiliklar tugdiradi. Bu guruhdagi chang zarrachalari elektrodda zich bO'lmagan qatlam xosil qiladi.

Tozalash darajasi (foydali ish koeffisienti) maolom vaqt ichida ushlab qolingani material hajmini gaz oqimi bilan birga chang ushlovchi qurilmaga kirgan material hajmiga nisbati bilan ifodalanadi.

Chang ushlab qolish samaradorligi quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$n = \frac{G_1 - G_2}{G_1} 100\% = \frac{V_1 x_1 - V_2 x_2}{V_1 x_1} 100\%$$

Bu erda, G_1 va G_2 - gaz tarkibida bO'lgan, mos ravishda qurilmaga kirayotgan va undan chiqayotgan chang zarrachalarining og'irlik bo'yicha sarfi, kg/s; V_1 va V_2 - mos ravishda qurilmaga kirayotgan va undan chiqayotgan gazlarning hajmiy sarfi, m³/s; x_1 va x_2 - mos ravishda qurilmaga kirayotgan va undan chiqayotgan gaz oqimidagi zarrachalar konstantriyasi, kg/m³.

Uyurmali chang ushlovchi qurilmalar. Tuzilishi va ishlash prinsipi

Uyurmali chang ushlagichlar stiklonlarga nisbatan ancha qiyinrok taklif etilgan. Bunday qurilmaning O'q yO'nalishida pastki (birlamchi) va yuqorigi (ikkilamchi) uyurmali oqimlarning bir-biriga qarama-qarshi 'arakati mavjud.


Uyurmali chang ushlagichning sxemalari 5.1- va 5.2-rasmlarda ko'rsatilgan.

Yuqorigi oqim bilan kirgan chang zarrachalari markazdan qochma kuch taosirida devor yuzasi tomon uloktiriladi, yuza bO'ylab pastga qarab spiralsimon 'arakat qilib, chang yiiladigan bunkerga tushadi. Pastki oqim bilan qurilmaga kirgan chang zarrachalari dastlab gaz oqimi bilan spiralsimon 'arakatlanib yuqoriga kutariladi, keyinchalik markazdan qochma kuch taosirida devor tomon uloktiriladi va yuqorigi oqim bilan birga pastga qarab 'arakatlanib chang yiiladigan bunkerga tushadi.

Changli gazning qurilmaga kirish usuliga ko'ra uyurmali chang ushlagich bir necha turga bo'linadi: 1) ikkilamchi gaz oqimini soplo yordamida kirituvchi (5.1-rasm a); 2) birlamchi va ikkilamchi gaz oqimlarini parrak yordamida kirituvchi (5.1-rasm, b); 3) birlamchi va ikkilamchi gaz oqimini tangensial yO'nalishda kirituvchi qurilmalar.

Soplo yordamida gaz oqimi kiradigan qurilmaning yuqorigi qismida gorizontga nisbatan 15-30° qiya qilib joylashgan bir necha qator soplolar O'rnatilgan; ushbu tangensial soplolar yordamida ikkilamchi gaz oqimi uyurma xosil qiladi. Soplodan chiqayotgan gazning tezligi 60-80 m/s ni tashkil etadi. Bunday qurilmalarda ikkilamchi gaz oqimining 'ajmiy sarfi umumiy gaz sarfining 30-50% ni tashkil etadi.

Gaz oqimi parrak yordamida yoki tangensial yO'nalishda kiritiladigan qurilmalarda ikkilamchi gaz oqimining bosimi soplo yordamida kiradigan gaz bosimiga nisbatan ancha kam bo'ladi. Odatda ikkilamchi gazning qurilmaga kirishidagi tezligi va bosimi ta'minan stiklonlardagi ko'rsatkichlarga juda yaqin. Sanoat ishlab chiqarishlarida yuqorigi va pastki gaz oqimlari tangensial yO'nalishda kiradigan uyurmali chang ushlagichlardan foydalanish qulay va arzonga tushadi. Bundan tashqari qurilmaning tuzilishi sodda va bosimning yO'qolishi kamroq.



3-rasm. Stilindrsimon uyurmali chang tutgich:

a-yuqorigi gaz oqimini soplo yordamida kiritish; b-yuqorigi va pastki gaz oqimlarini parrak yordamida kiritish; v-yuqorigi va pastki gaz oqimlarini tangential yo'nalishda kiritish.

Korxonalardan ajralib chiqqan oqava suvlar va changlarni tozalashga oid bir qator tadbirlar belgilab olish mumkin.

Korxonalarda oqava suvlarni tozalash asosan biologik usullarda olib borilmoqda bunda tubandagi qurilmalar va usullar qo'llaniladi.

Biologik filtrlar

Biologik filtrlar (suzgichlar) ichiga maxsus moddalar bilantoldirilgan tozalash inshootidir. Shu materiallar orasidantozalanadigan oqava suvlarning sizib o'tishi

natijasida uning yuzasida biologik parda hosil boʻladi, bu parda asosan shujonzotlarning yashash sharoitiga asoslanganidir.

Biosuzgichlar ichiga toʻldirilgan materiallarga qarab, ikkita turga boʻlinadi:

- hajmli, donador materiallar bilan toʻldirilgan;
- shakldagi (tekislikdagi) materiallar bilan toʻldirilgan (yassi toʻldiruvchi).

Biologik suzgichlar asosan quyidagi boʻlimlardan tarkibtopadi:

- asosiy qismlari rejada doira yoki toʻgʻri toʻrtburchakshaklida, devorlari suv oʻtkazmaydigan inshoot ichiga oqavasuvlar sizib oʻtadigan toʻldirilgan materiallar;
- biosuzgichga toʻldirilgan materiallar yuzasiga bir tekis damaʼlum bir vaqt oraligʻida oqava suvlarni tarqatuvchi quvurlar;
- sizib oʻtgan suvlarni yigʻib, biosuzgichdan tashqarigachiqarish uchun qurilgan qurilmalar;
- oksidlash jarayonini taʼminlash uchun biosuzgich materiallari orasiga havo yetkazib beruvchi, havo taqsimlovchi qurilmalar.

Oqava suvlar suzgich materiallari orasidan sizib oʻtish davrida ishlab boʻlgan va oʻlgan biopardalar suv yordamida yuvilib, biosuzgichdan tashqariga chiqarib yuboriladi. Biosuzgichlarda oqava suvlarni tozalash jarayoni boshqabiokimyoviy tozalash inshootlaridagidek kechadi. Bunday inshootlarda tozalash jarayoni tabiiy sharoitda tozalanadigan inshootlardagiga nisbatan jadalroq boradi. Biologik suzgichlar maishiy-xoʻjalik va sanoat oqava suvlarini toʻla yoki toʻla boʻlmagan biologik tozalash jarayonida ishlatiladi.

Biologik suzgichlar sanoat oqava suvlarini tozalashda tozalash sxemasi bir bosqichli boʻlsa, asosiy inshoot sifatida, agar tozalash sxemasi ikki bosqichli boʻlsa, u holda birlamchi yoki ikkilamchi inshoot sifatida quriladi.

Biosuzgichlar alomatlariga qarab, bir necha turga boʻlinadi;

ulardan asosiysi toʻldiriladigan materiallarning xossalari bogʻliq holatdagisidir;

- hajmli toʻldiruvchilar (chigʻanoq, tosh, mayda tosh, qum,

togʻ jinslari va hokazolar);

— yassi toʻldiruvchilar (plastmassa, sopol, gazmol, temir va hokazolar).

Hajmli toʻldiruvchi materiallardan iborat boʻlgan biosuzgichlar quyidagi turlarga boʻlinadi:

— tomchili biosuzgichlar, toʻldiruvchi materiallar zarralarining kattaligi 20—30 mm boʻlib, ularning umumiy qalinligi

(toʻldirish balandligi) 1—2 m boʻladi;

— baland (yuqori) yuklanadigan biosuzgichlar, toʻldiriladigan materiallar zarralarining kattaligi 40—60 mm, toʻldirish balandligi 2—4 m boʻladi;

— minorali biosuzgichlar, toʻldiruvchi materiallar zarralarining kattaligi 60—80 mm va toʻldirish balandligi 8—16 m boʻladi.

Hajmli toʻldiruvchi materiallar zichligi 500—1500 kg/m³, gʻovakligi 40—50% ni tashkil qiladi. Biosuzgichlar butun balandligi boʻyicha bir xil kattalikdagi materiallar bilan toʻldiriladi va ostki qismida zarralarining kattaligi 70—100 mm, balandligi 0,2 m boʻlgan materialni ushlab turuvchi moslama qurilishi lozim.

Yassi toʻldiruvchilar bilan toʻldirilgan biosuzgichlarga quyidagilar kiradi:

— toʻkib toʻldiriladigan qattiq materiallar; bunda toʻldiriladigan materiallar sifatida sopol, plastmassa, temir va boshqalardan yasalgan halqa, boldoq, quvur qirqimlari, sharsimon vaboshqa shakldagi elementlardan foydalaniladi. Ularning turi vashakliga qarab, toʻldirilgan materiallarning zichligi 100—600 kg/m³, gʻovakligi 70—90% oraligʻida, materiallar bilan toʻldirish balandligi 1—6 m boʻlishi mumkin. Qattiq toʻplamli materiallar bilan toʻldirilgan biosuzgichlar — toʻldiruvchi materiallar sifatida plastmassadan yasalgan (yassi shaklliyoki qat-qat buklangan buramali varaqalar yoki fazoviy elementlar shaklidagi) hamda asbestotsementdan yasalgan varaqalardan iborat boʻlishi mumkin. Pastmassali

to'ldiruvchilar zichligi 40—100 kg/m³, g'ovakligi 90—97%, to'ldirish balandligi 2—16 m;

asbestotsementli to'ldiruvchilarning zichligi 200—250 kg/m³, g'ovakligi 80—90%, to'ldirish balandligi 2—6 m bo'lishi mumkin;

— biosuzgichlar yumshoq yoki o'ramli to'ldiruvchilar bilan to'ldirilishi mumkin, ularga temir, to'rparda, plastmassali pardalar, sun'iy gazmollar (neylon, kapron) ishlatilib, ular maxsuscho'pkorga (qolipga) mahkamlanadi yoki o'ram shaklida taxlabchiqiladi. Bunday to'ldiruvchilarning zichligi 5—6 kg/m³, g'ovakligi 94—99%, to'ldirish balandligi 3—8 m bo'lishi mumkin.

Tomchili biosuzgichlarni tozalanadigan oqava suvning birsutkadagi miqdori 10000 m³gacha bo'lganda qabul qilish mumkin, yuqori yuklanadigan va katta balandlikdagi biosuzgichlar oqavasuvning sutkadagi miqdori 50000 m³gacha bo'lganda loyihalanaadi.

Sun'iy yaratilgan sharoitda oqava suvlarni biologik tozalovchi inshootlarni hisoblash

Biologik suzgichlar ichiga maxsus moddalar bilan to'ldirilgan tozalovchi inshootdir. Ana shu materiallar orasidan tozalanadigan oqava suvlarning sizib o'tishi natijasida ularning yuzasida biologik parda, ya'ni asosan aerobli mikrojonzotlar to'plamini hosil bo'ladi.

Tomchili biosuzgichlar. Tozalanadigan oqava suvlarning KBBT to'la qiymati $Len > 220$ mg/l bo'lsa, tozalanadigan oqavasuvlarni qayta aylantirish holati qabul qilinishi kerak. KBBT to'la qiymati $Len < 220$ mg/l bo'lsa, oqava suvlarni qayta aylantirish usulini qabul qilish yoki qilmaslik hisoblash orqaliniqlanadi.

Baland yuklanadigan biosuzgichlar (aerosuzgichlar). Aerosuzgichlar asosan ochiq havoda joylashtiriladi va ular yuboradigan oqava suvlarning KBBT qiymati 300 mg/l danoshmasligi lozim.

Aerotenklar

Aerotenklarning ishlashi oqava suv tarkibidagi organik moddalarni aerobli mikrojonzotlar yordamida biokimyoviy oksidlashga asoslangan. Aerobli

6	Ishlab chiqarish bino va inshootlari ammortizatsiyasi	4160000,00	Ammortizatsion ajratma (2-jad)
7	Tsexning boshqa xarajatlari	141571030,40	1-4 bosqichlari yig'indisining 10-15 %
	Jami	256023347,20	

Maxsulot tannarxi kalkulyatsiyasi

Jadval-11

№	Xarajatlar bosqichlari	O'lcho v birligi	Birlik baxo	Birlik maxsulot tannarxi		Yillik ishlab chiqarish xarajatlari	
				Norma	Summa	Norma	Summa
1	Xom ashyo materiallar						
a)	Madaniy o'simlik	tn	140000,00	3,00	420000,00	100000,00	4200000000
b)	Suv bug'i	m3	4000,00	10,00	40000,00	100000,00	4000000000
v)	Elektr energiya	kvtG'soat	140,00	15,00	2100,00	100000,00	2100000000
g)	Suv	m3	300,00	10,00	3000,00	100000,00	3000000000
d)	Gaz	m3	140,00	125,00	17500,00	100000,00	1750000000

2	Ishlab chiqarish ishchilarining asosiy va qo'shimcha ish xaqlari (6-jad)				10477632		10477632
3	Sotsial sug'urta (6-jad 24%)				18079142		18079142
4	Ishlab chiqarishni tayyorlash va yo'lga qo'yish xarajatlari (1-jad 5%)				1989636		1989636
5	Tsexning ustama xarajatlari				256023347		256023347
6	Tsex tannarxi				486587751 7		4865877517 0
7	Umum zavod ustama xarajatlari (tsex.tan. 5%)				243293875 8		2432938758

8	Korxonatan narxi				510917139 3		5109171392 8
9	Ishlab chiqarishdagi tashqari xarajatlarning (korxonatan narxining 5%)				255458569 6		2554585696
	Jami				513471725		5364629962 4

Loyixalanayotgan ob'ektning asosiy texnik-iqtisodiy

ko'rsatkichlari

Jadval-12

№	KO'RSATKICHLAR	O'lchov birligi	Loyixa ko'rsatkichi	Eslatma
1	Yillik maxsulot ishlab chiqarish			
a)	Natura ko'rinishida	l	100000	9-jad
b)	Pul ko'rinishida	so'm	53646299624	11-jad
2	Ishchilar soni :		24	
a)	Asosiy ishchilar	kishi	10	4-jad
b)	Yordamchi ishchilar	kishi	3	5-jad
v)	ITR, MOP va xizmatchilar	kishi	11	8-jad
3	Kapital xarajatlari	so'm	628807200	1Q2-jad
4	Birlik maxsulot	so'm	5134,7	11-jad

	tannarxi			
5	Birlik maxsulot narxi	so'm	7000	
6	Yillik foyda	so'm	186528275	
7	Rentabellik darajasi	%	29,7	
8	O'z-o'zini qoplash muddati	yil	3,4	

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XORAZM VILOYATI
URGANCH SHAHRI

« Xorazm yalpiz ekstrakti » MCHJ *YAngiariq tumanida yalpiz poyasidan*
bioajratma ishlab chiqarishni tashkil qilish maqsadida ishlangan

BIZNES REJA VA TEXNIK
IQTISODIY ASOSNOMA

Urganch – 2018

MUNDARIJA

1	KIRISH (Rezyume)	
2	Ma'lumotlari.....	
3	Loyihada pul mablag'larini sarflanishi	
4	Loyixani asosiy maqsadi va yo'nalishi.....	
5	Respublika korxonalariga qilinadigan ilmiy xizmatlar va ishlab chiqariladigan asosiy mahsulotlar ro'yxati	
6	Loyihani amalga oshirishda qonuniy va me'yoriy hujjatlar.....	
7	Bozor holati taxlili.....	
8	Xom ashyolar to'g'risida ma'lumotlar.....	
9	Mahsulotlar tannarxini hisobi.....	
10	Amortizatsiya xarajatlarining belgilanishi.....	
11	Boshqaruv apparati ish xaqi fondi.....	
12	Ishchi xizmatchilar ish xaqi xarajatlari.....	
13	Bankdan olingan kredit mablag'ini qaytarish.....	
14	Tavakkalchilik va loyihaning samaradorligi.....	
15	Moliyaviy natijalar.....	
16	Xulosa.....	

1. KIRISH (REZYUME)

Respublikamiz hukumati tomonidan ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularga keng imkoniyatlar yaratib berishga alohida e'tibor qaratilmoqda va har qanday byurokratik to'siqlarni bartaraf qilish borasida qator qaror va farmonlar chiqarildi.

Jumladan:

- 1. 2016 yil 29 dekabr kuni O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoev «Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi Farmoni .**
- 2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoev tomonidan 2016 yilning 5 oktyabrda imzolangan PF-4888-sonli “Tadbirkorlik faoliyatini yanada rivojlantirish, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilish, ishbilarmonlik muhitini sifat jihatdan yaxshilash to'g'risida”gi Farmoni**
- 3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoev tomonidan 2017 yil 19 iyunda imzolangan PF-5087- sonli «Biznesning qonuniy manfaatlari davlat tomonidan muhofaza qilinishi va tadbirkorlik faoliyatini yanada rivojlantirish tizimini tubdan takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risidagi» Farmoni**
- 4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoev tamonidan 2017 yil 7 fevral kuni imzolangan 2017-2021 yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi»**

Qabul qilingan chora-tadbirlarning hayotga tatbiq etilishi tadbirkorlik sub'ektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlari muhofazasi kafolatlari

kuchayishini ta'minlash, biznesni tashkil etish va yuritishda har tomonlama ko'mak ko'rsatish, sifatli davlat xizmatlarini taqdim etish va mahalliy ishlab chiqaruvchilarning tashqi bozorlarga chiqishiga xizmat qiladi.

Tadbirkorlik sub'ektlarining yalpi ichki mahsulotdagi ulushini oshirish, ular tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning raqobatbardoshligini ta'minlash uchun hukumatimiz tomonidan salmoqli imtiyozlar hamda moliyaviy ko'maklar berilmoqda. Shu sababli ushbu imkoniyatlardan foydalangan holda tadbirkorlik sub'ektlari o'z faoliyatlarini rivojlantirish orqali jamiyat va xalq manfaatlarini ko'zlab xarakat qilmoqdalar. Hozirgi kunda mahsulot ishlab chiqarish hamda xizmatlar ko'rsatish qanchalik unumli va arzon bo'lsa, korxonalar, tashkilot hamda aholini ushbu mahsulot va xizmatlarga bo'lgan talabini qondirish shuncha yaxshi bo'ladi.

«Xorazm yalpiz ekstrakti» MCHJ 2018 yil sentyabr oyidan Yangiariq tuman Xokimligiga qarashli tadbirkorlik su'bektlariga Davlat xizmatlari ko'rsatish YAGONA DARCHA MARKAZINING №202-qaroriga asosan davlat ro'yxatidan o'tkazilishi kutilmoqda. Korxonalar o'zining Nizomidan kelib chiqqan holda aynan davr talabiga mos bozor sharoitini o'rgangan holda ***O'zbekiston Respublikasi aholisi uchun, hamda jahonning turli mamlakatlarida o'ta muhim bo'lgan, o'zi yaratgan ilmiy mahsulotlari va korxonalar muammolari bo'yicha amalga oshirgan ilmiy xizmatlariga bo'lgan ehtiyojlarni ta'minlash va ishlab chiqargan mahsulotlarini Respublikamiz is'temolchilariga etkazish va chet ellarga eksport qilish natijasida foyda olish maqsadida tuzildi.*** Korxonalar ushbu ustavining bandlarida ko'rsatilgan maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi ***asosiy faoliyat turlarini bajaradi:***

- qishloq xo'jaligi texnik ekinlarini qayta ishlash va ekstraktlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish;
- texnik ekinlar etishtirish va ularni chuqur qayta ishlash;

-Respublikamiz va xorijdagi korxonalari ishlab chiqarish faoliyati davomida yuzaga keladigan muammolarini shartnoma (kontrakt) asosida ilmiy xal qilib berish;

- mahalliy xom ashyolar, ikkilamchi resurslar va sanoat chiqindilari asosida yangi turdagi mahsulotlar olish texnologiyasini yaratish;

- yaratilgan innavatsion ishlanmalarni va texnologiyalarni korxonalar va tashkilotlarga shartnoma asosida sotish;

- Respublikamizdagi va xorijdagi korxonalariga ilmiy maslahat xizmatlarini ko'rsatish;

- Mahalliy xom ashyolari asosida import o'rnini bosadigan, eksportga mo'ljallangan yangi turdagi mahsulotlar ishlab chiqarish texnologiyalarini yaratish va ishlab chiqarishga tadbiiq qilish;

- Respublikamizda qondalatchilik maxsulotlari va farmotsevtika vositalarini ishlab chiqarish uchun ishlatiladigan efir moylari va ekstraktlarni ishlab chiqarish va respublika iqtisodiyotidagi korxonalariga, aholiga etkazib berish va chet el firmalariga eksport qilish;

- yangi turdagi yalpiz poyasidan bioajratma ishlab chiqarish, respublika korxonalariga, aholiga sotish va chet ellarga eksport qilish;

- shartnoma (kontrakt) asosida respublika va chet el korxonalarining yalpiz poyasidan bioajratmaga bo'lgan extiyojlarini ilmiy taxlil qilish, kerakli tavsiyalar ishlab chiqish va etkazib berish;

- nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari ilmiy tadqiqodlari olib borilishi uchun laboratoriyalar tashkil etish;

- talaba va magistrantlar uchun ilmiy va amaliy tadqiqodlar olib borilishi uchun qulay sharoitlar yaratish;

- chet ellik va o'zbekistonlik yirik olimlarning xamkorlikda ilmiy tadqiqodlar olib borishga jalb qilish va ular ishlashlari uchun barcha sharoitlar yaratish;

- yalpiz poyasidan olingan bioajratmaining barcha turlarini ishlab chiqarish, sotish chet ellarga eksport qilish. yalpiz poyasidan olingan bioajratmaining yangi turlarining texnologiyasini yaratish bo'yicha tadqiqodlar olib borish, sinash va amaliyotga tadbiiq qilish;

- yangi turdagi yalpiz poyasidan olingan bioajratmaining ishlab chiqarishni tashkil etish, shartnoma (kontrakt) asosida sotish va chet davlatlarga eksport qilish;

- yalpiz poyasidan olingan bioajratmaining barcha turlarini ishlab chiqarish, sotish va chet ellarga eksport qilish, yaratilgan mahsulotlarni sinash va keng doirada ishlab chiqarish, sotish va eksport qilish;

- yangi turlarini yaratish bo'yicha ilmiy tadqiqodlar olib borish, sinash va keng ishlab chiqarishni tashkil etish;

- yangi turdagi yalpiz poyasidan bioajratma olishning texnologiyasini ilmiy asosda yaratish, sinash, keng ishlab chiqarish, sotish va chet ellarga eksport qilish;

- kimyoviy texnologiyaning barcha yo'nalishlari bo'yicha ilmiy tadqiqod olib borish, raqobatbardosh, import o'rnini bosadigan, eksportga yo'naltirilgan yangi turdagi mahsulotlar yaratish, ishlab chiqarish va sotish hamda eksport qilish;

- organik sintez bo'yicha tadqiqodlar olib borish, yangi organik mahsulotlar olish texnologiyasini yaratish, ishlab chiqarish, sotish va eksport qilish;

- yangi turdagi mahsulotlar yaratish buyicha tadqiqodlarning fizik, kimyoviy va fizik-kimyoviy uslublarining barchasidan foydalanish kabi asosiy va Nizomda keltirilgan, O'zR qonunchiligiga zid bo'lmagan boshqa faoliyat turlarini ham bajaradi.

Bozorni arzon va jahonn standartlariga javob beradigan mahsulotlar bilan ta'minlash, aholi ehtiyojini qondirish va ishlab chiqarilgan mahsulotlar, shuningdek ko'rsatilgan xizmatlar bilan bozor sharoitida o'z o'rnini topish imkoniyatlarini izlab topishni maqsad qilib qo'ydik. Har bir tadbirkorning mahsuloti hamda ko'rsatayotgan xizmati qanchalik arzon va sifatli bo'lsa hamda ishlab chiqargan mahsuloti bilan jahon bozoriga chiqsa, mahsulotini realizatsiyasidan daromad olib o'zining va jamoasining ijtimoiy-iqtisodiy

ehtiyojlarini qondira olsa, Respublikaning valyuta zahiralari ko‘paytirsam, bu davlatimizning ravnaqiga qo‘shgan xissasi hisoblanadi.

Loyixaning asosiy maqsadi – yuqoridagi tur mahsulotlarni ishlab chiqarish va ilmiy xizmatlar ko‘rsatish sifatini jahon standartlari darajasiga ko‘tarish uchun zamonaviy texnologik tizimlar va ilmiy laboratoriyalarni va o‘zimiz ishlab chiqargan mahsulotni saqlash ombori va ofisni joylashtirish uchun kamida **800 m² yer maydoni olishni asoslashdan iborat.**

Ushbu loyixani samarali amalga oshishi natijasida – ya’ni so‘ralayotgan yer maydonida zamonaviy ishlab chiqarish ob’ekti quriladi va ishga tushiriladi. Jahon talablariga javob beradigan yuqori sifatli yalpiz poyasidan bioajratma ishlab chiqariladi. O‘zbekistonimizning ichki bozoriga sotiladi va chet Davlatlarga eksport qilinadi.

Rejalashtirilgan ishlab chiqarish mahsulotlari bo‘yicha O‘zbekiston va jahon bozorini analiz qilish shuni ko‘rsatdiki, bugungi kunda respublikamizda ushbu turdagi materiallarga bo‘lgan talab kundan-kunga ortib bormoqda. Ishlab chiqariladigan mahsulotlarning xom ashyolari mahalliy xom ashyolar ekanligidan kelib chiqilsa arzon mahsulot va sifatli bo‘lishi ko‘zlangan.

Hisob-kitoblar shuni ko‘rsatadiki, loyixa iqtisodiy samarali hamda sarf qilingan mablag‘lar uzog‘i bilan 4,4 yilda o‘z-o‘zini qoplaydi.

2. LOYIHA TASHABBUSKORI (YER OLUVCHI) MA’LUMOTLARI

№	Tadbirkorlik sub’ekti nomi	Tadbirkorlik sub’ekti yuridik maqomi
1.	«Xorazm yalpiz ekstrakti» MCHJ	Ma’suliyati cheklangan jamiyat

2.1. Tadbirkorlik sub'ektining davlat ro'yxatidan o'tgan vaqti:

«Xorazm yalpiz ekstrakti» MCHJ 2018 yil sentyabr oyida Yangiariq tuman Xokimligiga qarashli tadbirkorlik su'bektlariga Davlat xizmatlari ko'rsatish YAGONA DARCHA MARKAZINING №-401 qaroriga asosan Davlat ro'yxatidan o'tkazilishi kutilmoqda.

2.2. Tadbirkorlik sub'ektining bank rekvizitlari:

RO'YHATDAN O'TGANDAN KEYIN MA'LUM BULADI

«Xorazm yalpiz ekstrakti» MCHJ bank rekvizitlari:		

2.3. Korxonra rahbari to'g'risida ma'lumot

№	Korxonra rahbari	Tug'ilgan yili va joyi	Pasport ma'lumotlari		Korxonra rahbari yashash manzili
			Pasport raqami	Berilgan vaqti va joyi	
1.	Xasanova Nodira Komil qizi	22.09.1992 R.Jumaniyozov 12\A	AA 3187085	25.10.2013 yilda Xiva tumani IIB tomonidan berilgan	Xiva shahri

**2.6. Tadbirkorlik sub'ekti manzili va
telefon raqamlari to'g'risida ma'lumotlari**

№	Korxonona nomi	Korxonona manzili:	Murojaat uchun telefon
1.	«Xorazm yalpiz ekstrakti» MCHJ	Xorazm viloyati Urganch sh, Dosov k.5 uy	+99897-510-19-91

3. LOYIHADA PUL MABLAG‘LARINI SARFLANISHI

№	Pul mablag‘larini sarflanish yunalishi	Ul bir	Soni	Summasi (ming so‘m)	Summasi (AQSH doll)	Jami summasi (ming so‘m)	Jami summasi (AQSH doll)	Loyiha buyicha qilingan ishlar ulushi
1.	<i>Kredit mablag‘i hisobidan:</i>							
1.1.	YAngiariq tuman Xokimligi tomonidan ajratilishi rejalashtirilayotgan yer maydonida ishlab chiqarish binolari, omborxonalar, idora binosini qurish ishlarini amalga oshirish	dona	1	122 000,0	-	122 000,0	-	34,2%
-	Jami kredit mablag‘i summasi	-	-	-	-	122 000,0	-	34,2%
2.	<i>Tadbirkor mablag‘i hisobidan:</i>							
2.1.	Mahsulotlari ishlab chiqarish uskunalari sotib olish uchun	komp	1	170 000,0	-	170 000,0	-	47,6%

2.2.	Ishlab chiqarish ob'ektiga injenerlik kommunikatsiyalari (gaz, suv, el.energiya o'tkazish)			65 000,0	-	65 000,0	-	18,2%
-	Jami tadbirkor mablag'i hisobidan	-	-	-	-	235 000,0	-	65,8%
3.	Jami loyiha qiymati:	-	-	-	-	357 000,0	-	100,0%

4. LOYIHA ASOSIY MAQSADI VA YO‘NALISHI

4.1. Loyihaning asosiy maqsadi: YAngiariq tumanida yalpiz poyasidan bioajratma ishlab chiqarishni samarali texnologiyalar asosida tashkil qilib mahsulot ishlab chiqarishdan iborat.

Loyiha tashabbuskori bugungi kunda YAngiariq tumani xokimligi tomonidan ajratilishi rejalashtirilgan yer maydonida kredit va o‘z mablag‘i hisobidan **69,0 mln** so‘mlik bino qurilish ishlari, **288 mln** so‘mlik ishlab chiqarish uskunalari sotib olish, **17,0 mln** so‘mlik aylanma mablag‘larni shakllantirib aholi uchun O‘zbekiston Respublikasi xalqi uchun import o‘rnini bosadigan arzon va sifatli mahsulotlari etkazib berishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan. Bu ishni amalga oshirish uchun 122,0 mln so‘m miqdoridagi pul mablag‘ini kreditga olib ish boshlamoqchiman.

Bu maqsadni amalga oshirish uchun jami 357,0 mln so‘m atrofida mablag‘ sarflanishi ko‘zlanmoqda. Lekin Loyiha tashabbuskori o‘zining hozirgi kundagi imkoniyatidan hamda O‘zbekiston Respublikasi banklari tomonidan yaratilayotgan sharoitlardan kelib chiqib, yiliga 20 foizli stavka bo‘yicha 122,0 mln so‘m miqdoridagi kredit mablag‘ini 3 yil muddatga olish zarur deb hisoblamoqda. Ushbu faoliyatni tashkil qilish bilan bir qatorda yangi xususiy korxonada kamida 15 ta yangi ishchi o‘rni yaratishni ham maqsad qilgan.

4.2. Loyihaning asosiy yo‘nalishi: Urganch shahri Xokimligi tomonidan ajratilishi rejalashtirilgan yer maydonida kredit va o‘z mablag‘i evaziga 69,0 mln so‘mlik bino qurilish ishlari va 288,0 mln so‘mlik zamonaviy uskunalar o‘rnatish rejalashtirgan.

Barchamizga ma‘lum ushbu mahsulotlarga bugungi kunda talab juda katta. Butun dunyo formatida olib borilayotgan qurilish ishlari analiz qilinsa bu sohada yalpiz poyasidan olingan bioajratmaning axamiyati juda katta. Bu tur mahsulot farmotsevtikada, qandolatchilikda keng ko‘lamda ishlatiladi. YAlpiz poyasidan bioajratma ishlab chiqarishga bo‘lgan talabning Respublikamiz miqiyosida doimiy

ravishda oshib borayotganini e'tiborga oladigan bo'lsak, mahalliy xom ashyolarni qabul qilishdan tortib, yalpiz poyasidan bioajratma ishlab chiqarishgacha bo'lgan va maxsulotni eksport qilish jarayonlarni optimallashtirish zamon talablari asosida.

Hozirgi kunda ishlatilib kelinayotgan yalpiz poyasidan bioajratmaning asosiy fizik-mexanik xossalari zamon talablariga javob bermay qolmoqda, yalpiz poyasidan bioajratma muddatidan oldin yemirilishi kuzatilmoqda. Bunga sabab yalpiz poyasidan bioajratmalarni tarkibidagi asosiy komponent miqdorining kamligi va tarkibga qo'shilayotgan xom ashyoning toza emasligida. Bundan tashqari maxsulotni ishlab chiqarishda temperaturaning yetarlicha bo'lamgallanligi va uskunalarning eskirib qolganligi sabab bo'lib kelmoqda.

Izoh: Loyiha tashabbuskori ushbu ko'zlangan maqsadni Yangiariq tumani hokimligi tomonidan ajratib berilishi rejalashtirilgan yer maydonini olgandan keyin amalga oshiradi.

Ushbu yer maydonini olish bir qancha omillar bilan asoslangan:

- Respublikamiz prezidenti tomonidan tadbirkorlikni qo'llab quvvatlash borasida chiqargan barcha farmon va qarorlari;

-Respublika xukumati tomonidan erkin mulkdorlar sinfini shakllantirish va rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan samarali yo'naltirilgan siyosati;

-byudjetga soliqlar va to'lovlar sifatida qo'shimcha tushumlarni tushishi;

-loyihani amalga oshirishda material-texnik bazani mavjudligi, import o'rnini bosuvchi, eksportga yo'naltirilgan arzon va sifatli mahsulotlar bilan ta'minlashning tashkil etilishi.

Xozirgi kunda rejalashtirilayotgan ishlab chiqarish mahsulotlarimizga va ilmiy xizmatlarimizga Respublikada va chet davlatlarda talab juda kattaligi va bu talabni qondirish uchun Loyiha tashabbuskorida tajriba va ilmiy potensialning mavjudligi.

**5. RESPUBLIKA KORXONALARIGA QILINADIGAN ILMIY
HIZMATLAR VA ISHLAB CHIQARILADIGAN ASOSIY
MAHSULOTLAR RO‘YXATI**

**5.1. Yangi tashkil qilingan MCHJ tomonidan ishlab chiqariladigan
mahsulotlar va ko‘rsatiladigan xizmatlar ro‘yxati**

1. Respublikamiz va xorijdagi korxonalari ishlab chiqarish faoliyati davomida yuzaga keladigan muammolarini shartnoma (kontrakt) asosida ilmiy xal qilib beriladi;

2. Mahalliy xom ashyolar, ikkilamchi resurslar asosida yangi turdagi mahsulotlar olish texnologiyasini yaratiladi;

3. Yaratilgan innavatsion ishlanmalarni va texnologiyalarni korxonalar va tashkilotlarga shartnoma asosida sotiladi;

4. Respublikamizdagi va xorijdagi korxonalariga ilmiy maslahat xizmatlari ko‘rsatiladi;

5. Mahalliy mineral xom ashyolari asosida import o‘rnini bosadigan, eksportga mo‘ljallangan yangi turdagi mahsulotlar ishlab chiqarish texnologiyalarini yaratiladi va ishlab chiqarishga tadbiiq qilinadi;

6. Jahon talablari asosidadi yalpiz poyasidan bioajratmalarni turlarini ishlab chiqariladi va Respublika iqtisodiyotidagi korxonalariga, aholiga etkazib beriladi va chetlarga eksport qilinadi;

7. Yangi turdagi yalpiz poyasidan bioajratmalarni texnologiyalari yaratiladi, ishlab chiqarish, respublika korxonalariga, aholiga sotiladi va chet ellarga eksport qilinadi;

8. Nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari ilmiy tadqiqodlari olib borilishi uchun laboratoriyalar tashkil etiladi. Talaba va magistrantlar uchun ilmiy va amaliy tadqiqodlar olib borilishi uchun qulay sharoitlar yaratiladi;

9. Yalpiz poyasidan bioajratmalarning barcha turlari ishlab chiqariladi, chet ellarga eksport qilinadi, sinaladi va amaliyotga tadbiq qilinadi. O‘zR qonunchiligiga zid bo‘lmagan boshqa faoliyat turlarini ham bajaradi.

6. LOYIHANI AMALGA OSHIRISHDA QONUNY VA ME‘YORIY HUJJATLAR

6.1. Loyihani amalga oshirishda quyidagi qonuniy hujjatlar mavjud:

- *O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 28-sentyabrdagi PQ-2615 sonli “2016-2020 yillarda qurilish materiallari sanoatini yanada rivojlantirish” dasturi to‘g‘risidagi “Kimyo va metallurgiya sanoatini rivojlantirish”to‘g‘risidagi Farmoni*
- *O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoev tomonidan 2016 yilning 5 oktyabrda imzolangan PF-4888-sonli “Tadbirkorlik faoliyatini yanada rivojlantirish, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilish, ishbilarmonlik muhitini sifat jihatdan yaxshilash to‘g‘risida”gi Farmoni*
- **O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoev tomonidan 2017 yil 19 iyunda imzolangan PF-5087 – sonli «Biznesning qonuniy manfaatlari Davlat tomonidan muhofaza qilinishi va tadbirkorlik faoliyatini yanada rivojlantirish tizimini tubdan takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risidagi» Farmoni**
- **O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoev tomonidan 2017 yil 7 fevral kuni imzolangan 2017 - 2021 yillarda**

O‘zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi»

6.2. Loyihani amalga oshirishni asoslovchi me‘yoriy hujjatlar

a). Ushbu loyiha doirasida loyixani texnik iqtisodiy asoslashi, texnologik xisoblashlar, jumladan material va issiqlik balanslari, maxsulotning analitik nazorati, ishlab chiqarishning ekologik masalalari, ishlab chiqarish tizimni avtomatik boshqarish va nazorat qilish, mexnat muhofazasi va texnik iqtisodiy ko‘rsatkichlari xisoblab chiqilgan. Tashkil qilinayotgan ishlab chiqarishning zarurligi va dolzarbligi ko‘rsatilib o‘tilib, 2017 yil xolatiga kutilayotgan iqtisodiy ko‘rsatkichlar ko‘rsatilib o‘tilgan. Bunga oid barcha xisoblashlar va asoslangan dalillar mavjud.

7. BOZOR HOLATI TAXLILI

7.1. Umumiy ta’riflar

Loyiha doirasida ishlab chiqariladigan mahsulotlari qadrli bo‘lib, ularga bo‘lgan talab xalq xo‘jaligining barcha sohalarida o‘ta yuqori. yalpiz poyasidan bioajratma olish va ular asosida tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish, shuningdek xomashyo bazasining ortishiga alohida e‘tibor qaratilmoqda. yalpiz poyasidan bioajratma ishlab chiqarishda ularning mustahkamligi va sifatini oshirish jarayonida issiqlik va olovga bardoshlilik, chidamliligini oshirish va jahon talablari asosida ishlab chiqarish ko`zda tutilgan. Loyiha doirasida mahalliy xom

ashyolar asosida standart talablarga to'la javob beruvchi, import o'rnini bosuvchi, eksportga yo'naltirilgan yalpiz poyasidan bioajratma olishning ilmiy, amaliy, texnologik asoslari yaratiladi va keng mashtabli ishlab chiqarish tashkil qilishga tavsifiya qilinadi.

Loyihaning bajarilishidan manfaatdor vazirlik, idora va boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlar jumlasiga – Respublikadagi barcha qurilish tashkilotlari, «O'zqurilish materiallari» AK, shaxsiy uy-joy quruvchilar va boshqalar kiradi. Kapital qurilish bitumsiz amalga oshirilmaydi. Eksport qilish imkoniyatlari mavjud.

Dastlabki yillarda yiliga 500 litr ishlab chiqarish tashkil etilsa, ilmiy hajmdor mahsulotning 150 litri ya'ni 30%ini eksport qilish imkoniyatlari mavjud. Chet ellik potensial is'temolchilar jumlasiga – Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston kabi mamlakatlarni kiritish mumkin.

7.3. Marketing strategiyasi

Korxonada bugungi kunda marketing strategiyasi borasida quyidagi tadbirlarni amalga oshirishni rejalashtirgan:

- milliy iqtisodiyotning mutanosibligi va barqarorligini ta'minlash, uning tarkibida sanoat, xizmatlar

ko'rsatish sohasi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ulushini ko'paytirishga doir strategiya;

- ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash, ishlab chiqarish, transport-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma loyihalarini amalga oshirishga qaratilgan faol investitsiya siyosatini bo'yicha strategiya;

- sanoatni yuqori texnologiyali qayta ishlash tarmoqlarini, eng avvalo, mahalliy xom ashyo resurslarini chuqur qayta ishlash asosida yuqori qo'shimcha qiymatli tayyor mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha jadal rivojlantirishga qaratilgan modernizatsiya va diversifikatsiya bo'yicha strategiya;

- prinsipial jihatdan yangi mahsulot va texnologiya turlarini o'zlashtirish, shu asosda ichki va tashqi bozorda milliy tovarlarning raqobatbardoshligini ta'minlash bo'yicha strategiya;

- ishlab chiqarish mahalliyashtirish, eksport faoliyatini liberallashtirish, eksport tarkibini va geografiyasini diversifikatsiya qilish va eksport salohiyatini kengaytirish va safarbar etish kabilar bo'yicha marketing strategiyasi olib boriladi.

7.3. Bozor holati taxlili:

Loyiha tashabbuskori rejalashtirgan ishlab chiqariladigan mahsulotlarni Respublikaning barcha viloyat va tumanlari kesimida bozor tahlilini o'rgandi. Loyihaning bajarilishidan manfaatdor vazirlik, idora va boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlar jumlasiga – Respublikadagi barcha qurilish tashkilotlari, «O'zoziqovqatxolding» AK, «O'z kimyosanoat» DAK, «Uz farmsanoat» va boshqalar kiradi. Chet ellik potensial is'temolchilar jumlasiga – Qozog'iston, Turkmaniston, Qirg'iziston va Turkiya kabi mamlakatlarni kiritish mumkin.

O'zbekiston bozorida bu tur maxsulotga xozircha **raqobatchilar yo'q.**

7.4. Loyiha tashabbuskorining bozorda o'z o'rnini topishi

Loyiha tashabbuskori Respublika va chet ellar bozorida o'z o'rnini topishiga shuhba mutlaqo yo'q. Chunki bizning korxonamizda ishlab ciqarilishi kutilayotgan maxsulotimiz sifati jahon talablariga mosligi, mahalliy xom ashyolardan foydalanishi, asbob uskunalarning yangi zamonaviy texnikalar bilan jixozlanganligi va chet eldan kirib kelayotgan maxsulotdan ancha arzonligi bilan bozor iqtisodiyotida o'z o'nini topadi.

Bozor mukammal taxlil qilindi. Rossiya va MDX davlatlarida ishlab chiqarilayotgan 40%ga yaqini zamonaviy bozorning assortimenti va sifatiga javob bermasligi, ulardan qilingan shu bilan birga Respublikamiz iqtisodiyatida yiliga kamida 1000 litr yalpiz poyasidan bioajratma yetishmasligi o'rganildi.

8. XOM-ASHYOLAR TO'G'RISIDA MA'LUMOTLAR

8.1. Ishlab chiqarish xom ashyolariga quyidagilar kiradi va etkazuvchi

tashkilotlar tug'risidagi ma'lumotlar jadvalda keltirilgan:

№	Xom ashyolar nomlari	Texnik parametrlari, GOST, TU	Etkazib beruvchi tashkilot	Miqdori (tn)
	Suv	GOST 8691-73	Tuyamo'yin-Xiva suv ta'minoti tizimi	10000,5 m.kub
	YAlpiz massasi	GOST 18320-78	Mahalliy hom ashyolar	
	Etil spirti	GOST 23083-78	Y'Angiyo'l spirt zavodi" MCHJ	4,5

Izoh: Ta'minlovchi tashkilotlar bilan shartnomalari imzolash rejalashtirildi.

**MAHSULOTI ISHLAB CHIKARISH UCHUN
KETADIGAN XOM-ASHYO XARAJATLARI**

№	XOM ASHYO nomi	O'lchov birlik	Soni	1-chi yil uchun, ming sum hisobida		2-chi yil uchun, ming sum hisobida		3-chi yil uchun, ming sum hisobida	
				Summasi	Jami	Summasi	Jami	Summasi	Jami
1.	YAlpiz poyasi	Ming Tn	25000,0	3100	4650,0	200	300000	260	0
2.	suv	Tn	50,0	25	112500	35	157500	40	1
3.	Etil spirti	Tn	,5	800	100000	12000	120000	14400	0
Jami: 1000					713	500	856	200	1

Ishlab chikariladigan mahsulot miqdori	Tn	1000,0		500,0		500,0		5
---	----	--------	--	-------	--	-------	--	---

IZOX: Mahsulot ishlab chikarish uchun ketadigan xom ashyo xarajatlari narxi xar

yili 20 % oshishi hisob-kitob kilindi

9. MAHSULOTLAR TANNARXINING DASTLABKI HISOBI

1000 litr yalpiz poyasidan olingan bioajratma(ekstrakt) ishlab chiqarish bo'yicha tannarx hisobi

№	Nomi	‘lchov birligi	iqdori	Bahosi	Summa
Materiallar:					
	Import:	-	-	-	-
	Mahalliy:				
		g	1100	50,0 ²	275 000
		g	50	50,0 ⁴	22 500
		g	0	0 000,0 ¹	100 000
		g	0	000,0 ¹	50 000
		g	0	000,0 ⁷	350 000
		g	0	000,0 ⁷	350 000
		JAMI			1 147 500
		g	0	0 000 ³	300 000
Butlovchilar, jumladan:					
	Import	-	-	-	-
	Mahalliy:				
	Markirovka (yorliq)	ona	000	00 ¹	100 000
	Qadoshlash (idish yoki qoplar)	ona	00	00 ¹	10 000
VSEGO					110 000
	Energiya				
	Elektroenergiya	KVt	180,00	00 ¹	18 000
	Suv	m ³	1,0	00 ⁵	500
	Tabiiy gaz	3	200,0	50 ¹	30 000,0

	Transport- tayyorlov ishlari				500
	Ishlab chiqarish ishchilari maoshi				200 000
	Uskunalar amortizatsiyasi				700
	Marketing xarajatlari				500
	SUMMA				1 807700

10. QURILISHI REJALASHTIRILAYOTGAN BINO VA INSHOOTLAR UCHUN AMARTIZATSIYA XARAJATLARI

№		1-yil uchun ming sum	2-yil uchun ming sum	3-yil uchun ming sum
1.	Er maydonida kuriladigan bino va inshootlar va uskunalar umumiy qiymati	357,0	339,0	321,0
2.	Amartizatsiya muddati	20 yil	19 yil	18 yil
3.	Eskirish koeffitsenti	5 %	5 %	5 %
4.	1 yillik amartizatsiya xarajati	1785,0 ming sum	1785,0 ming sum	1785,0 ming sum
5.	Ishlab chiqariladigan maxsulot turi	3 tur	3 tur	3 Tur
6.	Xar bir mahsulot uchun 1 yillik amartizatsiya xarajati	5,0 ming sum	5,0 ming sum	5,0 ming sum

11. BOSHQARUV APPARATI ISH XAQI FONDI

№		Ishchi urni	1 oyda	1 yilda	1 oyda	1 yilda	1 oyda	1 yil
---	--	----------------	--------	---------	--------	---------	--------	-------

1.	Korxonara xabari	1	1500,0	18 000,0	1700,0	20 400,0	1850,0	22 200,0
2.	Bosh texnolog	1	1100,0	13 200,0	1250,0	15 000,0	1350,0	16 200,0
3.	Bosh injener	1	1100,0	13 200,0	1250,0	15 000,0	1350,0	16 200,0
2.	Korxonara bosh hisobchisi	1	1100,0	13 200,0	1250,0	15 000,0	1350,0	16 200,0
3.	Jami	4	4 800,0	57 600,0	5 450,0	65 400,0	5 900,0	70 800,0
4.	Ish xaqidan 25 % ajratma		1200,0	14 400,0	1362,5	16 350,0	1475,0	17 700,0
5.	Jami boshqaruv xarajatlari		6000,0	72 000,0	6 812,5	81 750,0	7 375,0	88 500,0

Izox: Boshqaruv xarajatlari har yili Respublikamizda ish xaqi oshishi inobatga olingan xolda 20 % oshirib hisob-kitob qilindi.

12. ISHCHI XIZMATCHILAR ISH XAQI XARAJATLARI

<i>ming sumda</i>			1-chi yil uchun			2-chi yil uchun			3-chi yil uchun		
№		Ishchi o'rnini	1 oylik maosh	1 oyda	1 Yilda	1 oylik maosh	1 oyda	1 yilda	1 oylik maosh	1 oyda	1 yilda
1.	Asosiy ishchilar	12	750,0	9 000,0	108 000,0	850,0	10 200,0	122 400,0	970,0	11 640,0	139 680,0
2.	Yordamchi ishchilar	3	650,0	1 950,0	23 400,0	750,0	2 250,0	27 000,0	820,0	2 460,0	29 520,0
3.	Jami	15		10 950,0	131 400,0		12 450,0	149 400,0		14 100,0	169 200,0

4.	Ish xaqidan 25 % ajratma			2 737,0	32 850,0		3 112,5	37 350,0		3 525,0	49 050,0
5.	Jami ish xaqi xarajatla ri			13 687,0	164 250,0		15 562,0	186 750,0		17 675,0	218 250,0

Izox: Ishchi xodimlar ish xaqi xarajati Respublikamizda xar yili ish xaki oshishi inobatga olingan xolda 20 % oshirib hisob-kitob qilindi.

13. BANKDAN OLINGAN KREDIT MABLAG‘INI QAYTARISH

13.1. Bankdan olingan kredit mablag‘ini Loyiha tashabbuskori tomonidan ishlab chiqarilidigan **mahsulotlarini** sotishdan tushgan mablag‘lar hisobidan kaytarish rejalashtirilgan.

13.2. Bankdan olingan kredit mablag‘i foiz stavkasi yillik **20 foiz** miqdorida hisob-kitob qilindi va kredit mablag‘i **3 yil** muddatda qaytarilishi rejalashtirilgan. Bankdan olingan kredit mablag‘ini kaytarish grafigi to‘la hisob-kitobi TIANing **12-chi ilovasida** uz aksini topgan.

14. TAVAKKALCHILIK VA LOYIHANING SAMARADORLIGI

14.1. Texnik tavakkalchilik

Tavakkalchilikning asosiy belgilari asosan ishlab chiqarish binosini ta'mirtalab bo'lib kolishi, xom-ashyolar etkazib berishdagi uzilishlar hamda mahsulot sifatini buzilishida kuzatilishi mumkin.

Kutilayotgan texnik tavakkalchilik inventar va jixozlarni ishdan chiqishi, sifatsiz mahsulotdan saqlanish va boshqalar.

Kutilayotgan texnik tavakkalchilikni oldini olish chora tadbirlari. Xizmat ko'rsatishni bir maromda ketishini uchun mahsulot etkazib beruvchilar bilan uzok muddatli shartnomaviy xamkorlikni yo'lga qo'yish, malakali ishchi xodimlarining mavjudligi, mahsulot sifati va narxiga alohida e'tibor qilinishi. SHuningdek xom-ashyolardan uzilishlar bo'lmasligi uchun zarur bo'lgan materiallarning omborxonada etarli miqdorda bo'lishi hamda mintakadagi talab va taklifni qo'llagan hamda marketing izlanishlari olib borgan xolda mahsulot ishlab chiqarilishini bir maromda bo'lishini ta'minlash.

14.2. Moliyaviy tavakkalchilik.

Tavakkalchilikning asosiy belgilari korxonada hisob raqamida mablag' bo'lmay qolishi va xom-ashyo etkazib berish hamda xizmatlar ko'rsatishda uzilishlar bo'lishi.

Kutilayotgan moliyaviy tavakkalchilikni oldini olish chora tadbirlari. Korxonada xar oygi daromadidan 10% mablag'ini kutilayotgan moliyaviy tavakkalchilikka zaxiralab qo'yishi ko'zlangan.

14.3. Mahsulotlar ishlab chiqarishdagi tavakkalchilik.

Tavakkalchilikning asosiy belgilari mijozlarning yo'qligi yoki kamligida, shuningdek mahsulotlarni omborxonalarda turib qolishi kabilarda bo'lishi mumkin.

Ko'rsatilgan xizmatni tavakkalchiligini oldini olish chora tadbirlari. Boshqa xizmat ko'rsatuvchilardan farqli xizmat narxlarini mintakadagi talab va taklifdan kelib chiqqan xolda marketing izlanishlari orqali keskin kamaytirilganligi va ko'rsatilayotgan xizmat sifatini oshirish hamda yaxshilash orqali mijozlarga ega bo'lish.

15. MOLIYAVIY NATIJA

15.1. Loyihaning samardorligi shundaki, YAngiariq tumani Xokimligi tomonidan ajratib berilishi rejalashtirilgan yer maydonida **122,0 mln** soʻmlik bino qurilish ishlari, **235,0 mln** soʻmlik mahsulotlari ishlab chiqarish uskunalari sotib olinadi hamda **25,0 mln** soʻmlik aylanma mablagʻlari shakllantiriladi, ushbu uskunarlar va aylanma mablagʻlari bevosita mahsulotlar ishlab chiqarilishiga yoʻnaltirilib ushbu jarayonga jalb qilinganligi bois yuqoridagi koʻrsatkichlarga koʻra ijobiy natijalarni beradi.

Loyiha tashabbuskori xozirgi kunda loyihaning bajarilishi samardorligiga erishish maqsadida isteʼmolchilarga Xalqaro darajada xizmat koʻrsatishni maqsad qilib olgan.

15.2. Loyiha tashabbuskori oʻz faoliyati davomida mahsulotlarni ishlab chiqarish orqali sotishdan tushgan summadan barcha sarf xarajatlar va majburiy toʻlovlarni chegirganda qolgan qismi Loyiha tashabbuskorining daromadi hisoblanadi.

Loyiha tashabbuskori tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar tannarxiga sarflangan xom-ashyo, ishchi-xizmatchilar maoshi, amortizatsiya, elektr energiya, gaz sarfi va boshqa kuzda tutilmagan sarf xarajatlardan shakllanadi.

17. XULOSA

Loyihaning bajarilishi natijasida ishlab chiqarish iqtisodiyot tarmogʻida butunlay yangi yoʻnalish, bunda chet eldan import boʻlayotgan yalpiz poyasidan bioajratma oʻzimizning mahalliy xom ashyolardan tayyorlanib, yuqori sifat va yalpiz poyasidan bioajratmalar oʻzimizda ishlab chiqariladi. Mutloqo yangi texnologik infratizim, sanoat-tajriba qurilmasi oʻzlashtiriladi. Natijada kundan kunga taqchil boʻlib borayotgan, uning ustiga bahosi qimmatlashayotgan, shu bilan birga import oʻrnini bosadigan va eksportga yoʻnaltirilgan, jahon standartlari

asosidagi yalpiz poyasidan bioajratma mahsulotlarni ishlab chiqarish keng ko‘lamda boshlanadi. Alohida takidlash lozimki, ishlab chiqarishga ko‘p mablag‘ sarf bo‘lmaydi, texnologiyasi sodda, ko‘p sonli murakkab uskunalar talab qilinmaydi.

Yuqorida keltirilgan faktorlarga asoslanib ushbu loyiha samarali amalga oshiriladi deb xulosa qilish mumkin.

Ushbu mahsulotlarni ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish:

- yangi ishchi o‘rinlarini tashkil qilish;
- ishlab chiqariladigan mahsulotlar sifati va samaradorligini oshirish;
- zamonaviy servis xizmati ko‘rsatish madaniyatini olib kirish;
- ushbu mahsulotlarga bo‘lgan talabni qondirish vazifasini xal qiladi.

Bulardan tashqari, zamonaviy inventarlar va uskunalar yordamida yuqorida nomlari keltirilgan **mahsulotlar** ishlab chiqarish faoliyatini tashkil qilish qisqa muddatlarda Loyiha tashabbuskori tomonidan olinadigan daromadni nafaqat oshishiga, balki keyinchalik xizmat ko‘rsatishni yoki mavjud xom-ashyolar yordamida yangidan tashkil qilishga zamin xozirlaydi.

Yuqoridagi faoliyat buyicha o‘tkazilgan analiz shuni ko‘rsatmokedaki, ushbu ishlab chiqariladigan mahsulotlar bozorda yuqori talabga ega. Yildan yilga talabning o‘shishini inobatga olingan xolda yalpiz poyasidan bioajratma bo‘lgan talabni oshishi ishlab chiqariladigan mahsulotlarni sotish yildan-yilga oshib borishini ta’minlaydi degan xulosani chiqarishga imkon yaratadi.

Ishlab chiqarishning 2018-2019 yillarga mo‘ljallangan hajmi, yiliga 5000000 donani tashkil etadi. Keng miqiyos ishlab chiqarish tashkil etilsa Respublika bo‘yicha yiliga 15 ming m² yalpiz poyasidan bioajratma ishlab chiqarish imkoniyati mavjud. Bu o‘z navbatida mamlakatimizning ushbu mahsulotga bo‘lgan taqchilligini ta’minlaydi va eksport qilishga zamin yaratadi.

Loyiha doirasidagi ilmiy hajmdor mahsulot yalpiz poyasidan bioajratma ning tannarxi 1 m² 16000 so‘m atrofida. Bugungi kundagi sotilish bahosi ichki bozorga 17000 so‘mni, chet ellarga 12 amerika dollarini tashkil qilmoqda. Vaholanki,

hozirda bu mahsulotning bahosi birjada sotilish bahosi 17500 so‘mni tashkil etmoqda.

Loyiha Bu o‘z navbatida Respublikamizning eksport salohiyatining kengayishiga, valyuta zahiralarining oshishiga olib keladi. Bu bilan mamlakatimizning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishining dolzarb masalalaridan biri hal bo‘ladi.

Ushbu loyihani amalga oshirish jarayonida Loyiha tashabbuskori **bir yil** davomida **2 mlrd so‘mdan ortiq** mahsulotlar ishlab chiqaradi. O‘tgan moliya yili mobaynida xizmatlar tannarxidan keyin **kamida 350,0 mln so‘m** daromad olinadi. Hamma majburiy to‘lovlar, soliqlarni to‘lovlari, kredit to‘lovlarini to‘lagandan keyin Loyiha tashabbuskori hisobida keyingi faoliyat uchun **119,0 mln sof foyda** qoladi. Bu uning kelgusi ishlariga asos bo‘lib, Loyiha tashabbuskori ishini yanada rivojlantirish, yangidan ishchi o‘rinlari ochish, xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilash hamda asosiy vositalarni sotib olishda xizmat qiladi.

«Xorazm yalpiz ekstrakti»

MCHJ raxbari

_____ **S. Qabulov**

VII. XULOSA

Men o‘z bitiruv malakaviy ishimi yakuniy hulosasi sifatida quyidagilarga to‘xtalib o‘tmoqchiman:

- Urganch davlat universitetida olgan bilimlar va amaliy ko‘nikmalarimizga asoslanib bitiruv malakaviy ishini yuqori darajada bajara oldim deb o‘ylayman;
- Yangiariq tumanida yalpiz poyasidan ajratma biosintez qilish sexini qurishga mos bo‘lgan xudud tanlash va uni texnik iqtisodiy jihatidan asoslash, muxandislik kommunikatsiyalariga bog‘ladim va ularni tavsiflab o‘tdim;
- Yangiariq tumanida yalpiz poyasidan ajratma biosintez qilishning maqbul bo‘lgan texnologik sxemasini tanlash va unga asosiy texnologik xisoblarni olib bordim va asosiy uskunalarni tanlab oldim;
- Yangiariq tumanida yalpiz poyasidan ajratma biosintez qilishda asosiy texnologik qurilmasini texnologik hisobini ishlash xamda konstruktiv loyihalash va grafik chizmasini tayyorladim;
- Yangiariq tumanida yalpiz poyasidan ajratma biosintez qilishni loyihalashda ekologik masallar echimini ishlab chiqish, mehnat muxofazi va xavfsizlik texnika qoidalarini ko‘rib chiqish, ishlab chiqarish tizimlarini avtomatik boshqarish va nazorat qilish masalalarini ishlab chiqdim;
- ishlab chiqarishni tashkil qilish hisobiga 2017 yil holatidan kelib chiqib kutilayotgan iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlarini hisoblab chiqdim.

Ishning amaliy ahamiyatini kursatib o‘tdim va unga ko‘ra O‘zbekiston o‘zining tabobat sohasida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan tabiiy o‘simliklari bilan dunyoda etakchi davlatlar qatoridan o‘rin olganligi, tibbiyot ilmining buyuk mutaffakkirlaridan bo‘lgan allomamiz Abu-Ali Ibn Sino tomonidan qoldirilgan ilmiy meros, halq tabiblari tomonidan asrlar osha qo‘llanilib kelinayotgan usul va vositalar ishlab chiqarish tizimlariga joriy qilinsa, nafaqat ishlab chiqarish tizimiga, iqtisodiyotga, balki inson salomatligiga, uni yaxshilashga xizmat qilishiga to‘htalib o‘tdim. Zero, bugungi kunda mamlakatimizda inson manfaatlari eng ustuvor vazifa deb qaralmoqda.

VIII. Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” gi farmoni
2. Mirziyoev SH. M . Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutq /SH.M. Mirziyoev. - Toshkent: «O‘zbekiston», 2016. -56 b
3. Mirziyoev SH. M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruza, 2017 yil 14 yanvar / SH.M. Mirziyoev. – Toshkent : O‘zbekiston, 2017. – 104 b.
4. Mirziyoev SH. M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. / SH. M. Mirziyoev. – Toshkent : O‘zbekiston, 2017. -592 b
5. И.И.Сидоров, Н.А. Турышева и др. Технология натуральных эфирных масел и синтетических душистых веществ. Легкая и пищевая прром-ст., 1984 – 368с.
6. К.Х. Холматов, О'.А. Ахмедов, "Farmakagioziya" Toshkent 1995 -yil.
7. К.Х. Haydarov, К.Х. Хожиматов " O'zbekiston o'simliklari" Toshkent 1976 - yil.
8. К.Х. Холматов, Ў'.А. Ахмедов, "Фармакагиозия" Тошкент 1995 -йил.
9. К.Х. Ҳайдаров, К.Х. Хожиматов " Ўзбекистон ўсимликлари" Тошкент 1976 - йил.
10. А.П. Чипича, Т.В. Чипича, Б.Л.Глазенберг " Профессии в эфирно масличной промышленности "
11. Н.Х.Мақсудов " Получения эфирные масел". Т. Ўқитувчи 1980. 342 с.

12. V. Karimov, A. SHomaxmudov " Xalq tabobati va zamonaviy ilmiy tibda qo'llaniladigan shifobaxsh o'simliklar. T. Fan 2001 200 s.
13. X.X. Xolmetov, A.I.Qosimov " Dorivor o'simliklar lug'ati" Toshkent Ibn Sino 1992 - yil.
14. Журнал " Химия и жизнь" 11. 1980 - йил